| <b>Abdukarimova Dilnozaxon Mamurjon qizi</b>                                                                                                                                                                                                                 |     |
| KICHIK BIZNESDA ISHLAB CHIQARISH RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI .....                                                                                                                                                   | 635 |
| <b>Kaypnazarova Gulshad Xojamuratovna</b>                                                                                                                                                                                                                    |     |
| KOMMUNAL XO'JALIKLARNI SAMARALI BOSHQARISHNING IQTISODIYOT RIVOJIDAGI O'RNI.....                                                                                                                                                                             | 640 |
| <b>Mardanova Mohidil Otabek qizi</b>                                                                                                                                                                                                                         |     |
| INTENSIV BOG'DORCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION AGROTEKNOLOGIYALARNING AHAMIYATI .....                                                                                                                                                                 | 645 |
| <b>Kahorov Erkin Azizjonovich</b>                                                                                                                                                                                                                            |     |
| <b>Xolmuminov Shuxrat Shayzakovich</b>                                                                                                                                                                                                                       |     |
| OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA RAQAMLI HR-MENEJMENT TIZIMINI JORIY ETISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI.....                                                                                                                                               | 653 |
| <b>Haqqulov Yunusjon Abdiravufovich</b>                                                                                                                                                                                                                      |     |
| MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI .....                                                                                                                       | 658 |
| <b>Erdanayev Behzod Abdumalikovich</b>                                                                                                                                                                                                                       |     |
| SURXONDARYO VILOYATIDA YASHIL IQTISODIYOT ASOSIDA AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISH YO'LLARI .....                                                                                                                                                                | 662 |
| <b>Choriyeva Muattar Sharafiddin qizi</b>                                                                                                                                                                                                                    |     |
| SURXONDARYO VILOYATIDA UY XO'JALIKLARINI MOLIYALASHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....                                                                                                                                              | 667 |
| <b>Odilov Umid Abduxalimovich</b>                                                                                                                                                                                                                            |     |
| TRADE OPENNESS AND ECONOMIC COMPETITIVENESS IN DEVELOPING ECONOMIES: A PANEL DATA ANALYSIS WITH POLICY IMPLICATIONS FOR UZBEKISTAN.....                                                                                                                      | 672 |
| <b>Marjona Toshniyozova</b>                                                                                                                                                                                                                                  |     |



# HUDUDIIY ISLOHOTLARNING IJTIMOIY-IQTISODIY NATIJADORLIGI: TAQQOSIY TAHLIL VA AMALIY KEYSLAR



**Sherzod Qurbonov Ismatillayevich,**  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
xodimi, ekspert



**Sanjar Farmonov Jamoliddinovich,**  
O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti huzuridagi  
Boshqaruv samaradorligi  
agentligining Toshkent shahar  
filiali mas'ul xodimi

**Annotatsiya.** Maqolada Yangi O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan hududiy ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, xususan, kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini oshirish borasida erishilgan natijalar tahlil qilingan. Tadqiqotda respublika miqyosidagi umumiy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda Navoiy, Xorazm, Namangan, Buxoro, Samarqand, Jizzax va Sirdaryo viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda Toshkent shahrida kambag'allik darajasining o'zgarishi qiyosiy o'rganilgan. Shuningdek, Surxondaryo viloyatining Uzun va Denov tumanlari misolida ajratilgan moliyaviy resurslar, jalb qilingan investitsiyalar, tashkil etilgan korxonalar, amalga oshirilgan mikroloyihalar va aholi daromadlaridagi o'zgarishlar tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi hududiy islohotlar samaradorligini statistik ma'lumotlar asosida baholash, hududlar o'rtasidagi tafovutlarni aniqlash, natijalarga ta'sir etuvchi iqtisodiy va boshqaruv omillarini ochib berishdan iborat. Tahlil hududiy rivojlanish natijalari nafaqat ajratilgan moliyaviy resurslar hajmiga, balki hududning iqtisodiy sharoiti, resurslarning manzilli yo'naltirilishi va mahalliy boshqaruv sifatiga ham bog'liqligini ko'rsatadi. Shu asosda hududiy dasturlarni natijaviy ko'rsatkichlar bo'yicha baholash, ma'lumotlar ochiqligini kengaytirish hamda hududlarning o'ziga xos sharoitlarini hisobga olish bo'yicha takliflar ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** hududiy islohotlar, kambag'allikni qisqartirish, aholi bandligi, hududlararo tafovutlar, mahalla loyihasi, mikroloyihalar, mahalliy boshqaruv, hududiy rivojlanish, «O'zbekiston – 2030» strategiyasi.

**Аннотация.** В статье анализируются результаты социально-экономических реформ, проводимых в регионах Узбекистана в последние годы, в частности в сфере сокращения бедности и повышения занятости населения. Наряду с общереспубликанскими показателями проведён сравнительный анализ изменения уровня бедности в Навоийской, Хорезмской, Наманганской, Бухарской, Самаркандской, Джизакской и Сырдарьинской областях, Республике Каракалпакстан и городе Ташкенте. На примере Узунского и Денауского районов Сурхандарьинской области проанализированы выделенные финансовые ресурсы, привлечённые инвестиции, созданные предприятия, реализованные микропроекты, а также изменения в доходах населения. Цель исследования заключается в оценке эффективности региональных реформ на основе статистических данных, выявлении межрегиональных различий, а также определении





экономических и управленческих факторов, влияющих на результаты. Анализ показывает, что результаты регионального развития зависят не только от объёма выделенных финансовых ресурсов, но и от экономических условий региона, адресности распределения ресурсов и качества местного управления. На этой основе предложены подходы к оценке региональных программ по результативным показателям, расширению открытости данных и учёту особенностей отдельных территорий.

**Ключевые слова:** региональные реформы, сокращение бедности, занятость населения, межрегиональные различия, проект махалли, микропроекты, местное управление, региональное развитие, стратегия «Узбекистан – 2030».

**Annotation.** The article analyzes the outcomes of socio-economic reforms implemented across the regions of Uzbekistan in recent years, with particular emphasis on poverty reduction and employment promotion. Along with nationwide indicators, the study provides a comparative analysis of changes in poverty levels in the Navoi, Khorezm, Namangan, Bukhara, Samarkand, Jizzakh, and Syrdarya regions, the Republic of Karakalpakstan, and Tashkent city. Using the Uzun and Denov districts of the Surkhandarya region as case studies, the research examines allocated financial resources, attracted investments, newly established enterprises, implemented microprojects, and changes in household income. The study aims to assess the effectiveness of regional reforms using statistical data, identify interregional disparities, and determine the economic and governance factors influencing the results. The analysis shows that regional development outcomes depend not only on the volume of financial resources allocated but also on local economic conditions, the targeted allocation of resources, and the quality of local governance. Based on these findings, the article proposes evaluating regional programs using outcome-based indicators, improving data transparency, and taking into account the specific conditions of individual regions.

**Key words:** regional reforms, poverty reduction, employment, interregional disparities, mahalla project, microprojects, local governance, regional development, “Uzbekistan – 2030” strategy.

## KIRISH

Hududlarda amalga oshirilayotgan ulkan islohotlarning amaliy natijalarini baholash mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining real manzarasini ko'rsatadi. Respublika miqyosida qabul qilinayotgan dastur va chora-tadbirlarning natijalari, avvalo, viloyat, tuman va mahallalarda namoyon bo'ladi. Aholi bandligi, daromadlarning o'sishi va kambag'allikning qisqarishi esa islohotlar samaradorligini ko'rsatuvchi asosiy mezonlar hisoblanadi.

**Ta'kidlash joizki, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy va ijtimoiy tafovutlarni qisqartirish bugungi kunda jahon miqyosidagi dolzarb masalalardan biridir. Iqtisodiy o'sish natijalarining hududlar o'rtasida notekis taqsimlanishi, bandlik imkoniyatlari va aholi daromadlaridagi farqlar kambag'allikni qisqartirish siyosatining hududiy jihatlariga e'tiborni kuchaytirmoqda. O'zbekistonda ham hududlar iqtisodiy salohiyati, bandlik imkoniyatlari va kambag'allik darajasi jihatidan farqlanadi. Shu sababli hududlarda amalga oshirilayotgan islohotlar natijalarini qiyosiy o'rganish, mavjud tafovutlarning sabablarini hamda yuqori natijaga olib kelayotgan omillarni aniqlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.**

Xususan, «O'zbekiston – 2030» strategiyasini amalga oshirish doirasida har bir yil uchun ustuvor vazifalarning belgilanishi, jumladan, 2026-yilning «Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili» deb e'lon qilinishi va tegishli davlat dasturining tasdiqlanishi hududiy rivojlanishga e'tibor kuchayganini ko'rsatadi<sup>1</sup>. Bunda asosiy e'tibor belgilangan vazifalarning bajarilishi va ularning aholi hayotida qanday aks etayotgani, qaysi hududlarda yuqori natijalarga erishilayotgani hamda bu natijalarga qanday omillar ta'sir qilayotganini aniqlashga qaratiladi. 2026-yil 16-fevralda qabul qilingan PF-22-son Farmonga ko'ra, mazkur yilda ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlar dasturlari va «O'zbekiston – 2030» strategiyasini amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi tasdiqlangan bo'lib, uni moliyalashtirishga jami 250,5 trillion so'm ajratilishi va 50,4 milliard dollar investitsiya jalb qilinishi ko'zda tutilgan<sup>2</sup>.

Hududlar bir xil iqtisodiy, demografik va ijtimoiy sharoitga ega emas. Shu bois bir viloyat yoki tumanda yuqori samara bergan yondashuv boshqa hududda aynan shunday natija bermasligi tabiiy. Muvaffaqiyatga erishgan hududlar tajribasini o'rganish esa natijaga ta'sir etgan asosiy omillarni aniqlash, boshqaruvdagi samarali usullarni ajratib olish va ularni mahalliy sharoitga moslashtirishda muhim ahamiyatga ega.

1 O'zbekistonda 2025-yilda kambag'allik darajasi 5,8 foizgacha tushdi [Elektron resurs] // Zamin.uz. – 2025. – 30 dek. – URL: <https://zamin.uz/uzbekiston/179605>.

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-22-son Farmoni. “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlar dasturlari va “O'zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida [Elektron resurs] // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – 2026. – 16 fevr. – URL: [Lex.uz](https://lex.uz).



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hududiy rivojlanish va kambag'allikni qisqartirish masalalari jahon iqtisodiy adabiyotida keng o'rganilgan. Xorijiy tadqiqotchilardan Adelaida universiteti professori Richard Pomfret Ketrin Anderson bilan hamkorlikda O'zbekistonning bosqichma-bosqich islohotlar strategiyasini tahlil qilib, institutsional barqarorlik hamda islohotlardagi davomiylikning ijtimoiy natijalarga ta'siriga alohida e'tibor qaratgan<sup>3</sup>. R. Pomfretning keyingi yirik monografiyasida Markaziy Osiyo davlatlaridagi islohotlar sur'ati va mintaqaviy integratsiya jarayonlari o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilingan [10]. Ushbu tadqiqotlarda uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishda institutsional omillarning o'rni ochib berilgan. Tahlillar, asosan, milliy va mintaqaviy darajadagi jarayonlarni qamrab olgan bo'lib, O'zbekistonning viloyat va tumanlari o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy farqlar alohida tadqiqot obyekti sifatida ko'rib chiqilmagan.

2016-yildan keyingi islohotlar xorijiy tadqiqotchilar e'tiborini alohida jalb etdi. Jahon bankining sobiq bosh iqtisodchisi, Pekin universiteti professori Justin Ifu Lin hammualliflari bilan birgalikda «Yangi O'zbekiston» to'plamida 2016-yilgacha va undan keyingi davr siyosatini qiyoslab, islohotlarning asosiy yo'nalishi davlatning bevosita ishlab chiqaruvchi sifatidagi rolini qisqartirib, uni bozorda imkoniyat yaratuvchi institutga aylantirishdan iborat ekanini ko'rsatgan. Mualliflarning fikricha, ish o'rinlari yaratish sur'ati va sifati resurslarni unumliroq sohalarga qayta taqsimlash mexanizmi qanchalik samarali ishlashiga bog'liq [29].

Jahon bankining O'zbekiston bo'yicha iqtisodiy memorandumida ham islohotlar 2016-yil oxirigacha to'xtab turgani, keyin esa ko'lam va sur'ati bo'yicha ayrim hollarda avvalgi islohotchi davlatlarnikidan o'zib ketgani qayd etilgan [30]. Bankning 2025-yilgi memorandumida esa 2010–2022-yillarda aholi jon boshiga o'sish o'rtacha 4,2 foizni tashkil etgani, biroq bu o'sish, asosan, kapital qo'yilmalar hisobiga bo'lib, unumdorlik hissasi past qolgani ta'kidlanadi [31]. Ushbu xulosa mazkur maqolaning markaziy tezisi — natijani ajratilgan resurs hajmi emas, uning qanday ishlatilgani belgilaydi, degan qarash bilan bevosita mos keladi.

Kambag'allikni o'lchash metodologiyasi bo'yicha Uilyam Seyts boshchiligidagi Jahon banki guruhining ishi alohida ahamiyatga ega: unda «asosiy ehtiyojlar qiymati» usuli asosida O'zbekiston uchun milliy kambag'allik chegarasi (bir kishiga oyiga 440 000 so'm) asoslab berilgan va har bir viloyatning shahar hamda qishloq qismi uchun alohida hududiy narx indekslari hisoblangan. Mazkur maqolada foydalanilgan kambag'allik darajasi ko'rsatkichlari aynan shu metodikaga tayanadi [32]. Ushbu pul ko'rinishidagi chegara har yili narx darajasiga qarab indeksatsiya qilib borilgan: 2022-yilda 498 000, 2023-yilda 569 000, 2024-yilda 621 000 (yil boshida), 2025-yilda 669 000, 2026-yil martida esa 715 000 so'mni tashkil etdi<sup>4</sup>.

Hududiy tafovutlarni bevosita o'lchagan yaqin yillardagi xorijiy tadqiqotlardan biri Koreya universiteti olimlari Ju Yang Mun, Che Uk Choy va Kyung Xi Kimning ishidir. Ular 2021–2022-yillardagi Ko'p ko'rsatkichli klaster tadqiqoti (MICS) ma'lumotlari asosida 4 166 ta uy xo'jaligi bo'yicha O'zbekistonning barcha 14 ta hududi, jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi kesimida turmush sharoiti ko'rsatkichlarini qiyoslagan. Tahlil natijasida toza yoqilg'i bilan ta'minlanish bo'yicha eng katta tengsizlik Andijon, Surxondaryo, Farg'ona, Qashqadaryo va Namangan hududlarida qayd etilgan. Bu ish kambag'allikni faqat daromad bilan emas, balki xizmatlardan foydalanish imkoniyati orqali ham baholash zarurligini ko'rsatadi [33].

Mahalla darajasidagi mexanizmlar esa Lund universiteti tadqiqotchisi T. Mustafoevning dala kuzatuvlarida yoritilgan. Uning ma'lumotiga ko'ra, bir xil dastur turli mahallalarda turlicha natija bergan va bu farq mahalliy ma'murlarning malakasi hamda mavjud infratuzilma bilan izohlangan. Ushbu kuzatuv mazkur maqolada Uzun va Denov tumanlari misolida ilgari surilgan farazni mustaqil manba bilan qo'llab-quvvatlaydi [34].

S. Babayev, T. Jonston va P. Almeydaning tadqiqotida O'zbekistonda kambag'allikni barqaror qisqartirishga ta'sir etuvchi institutsional va ijtimoiy omillar tahlil qilingan<sup>5</sup>. Mualliflar korrupsiya va norasmiy ijtimoiy aloqalarga asoslangan munosabatlarni bartaraf etish hamda ta'lim tizimini isloh qilish masalalariga e'tibor qaratgan. Shuningdek, ijtimoiy tabaqalanishning ortishi, chetdan keladigan pul o'tkazmalariga bog'liqlik va hududiy tafovutlar mavjud muammolar qatorida ko'rsatilgan. Chetdan keladigan pul o'tkazmalarining uy xo'jaliklari xarajatlariga ta'sirini o'rgangan xalqaro tadqiqotga ko'ra, bunday o'tkazmalarni oladigan oilalarda oziq-ovqat va sog'liqqa ketadigan xarajatlar ulushi kamayadi, oziq-ovqatdan tashqari iste'mol tovarlariga xarajat esa ortadi — bu daromad tarkibidagi o'zgarishni miqdoriy jihatdan tasdiqlaydi [35]. Tadqiqot hududiy tafovutlarni aniqlash jihatidan ahamiyatli. Shu bilan birga, ularning ko'lam hududlar kesimida miqdoriy jihatdan qiyoslanmagan. Investitsiyalar, institutsional islohotlar va mahalliy boshqaruv faolligining hududlar o'rtasidagi farqlarga ta'siri ham

3 Pomfret R., Anderson K. H. Gradual Economic Reform and Well-Being in Uzbekistan // Poverty, Income Distribution and Well-Being in Asia During the Transition / ed. by A. Lu, M. F. Montes. — London : Palgrave Macmillan, 2002. — P. 187–214. — DOI: 10.1057/9780230503892\_8.

4 O'zbekistonda kambag'allik chegarasi 715 ming so'm bo'ldi [Elektron resurs] // Gazeta.uz. — 2026. — 5 mart. — URL: <https://www.gazeta.uz/oz/2026/03/05/poverty-line/>.

5 Babaev S., Johnston T., Almeida P. Economic Growth and Poverty Reduction in Uzbekistan: Achievements and Challenges // International Journal of Advanced Research in Economics and Finance. — 2024. — Vol. 6, No. 4. — P. 16–26. — DOI: 10.55057/ijaref.2024.6.4.2.



alohida baholanmagan. Demak, hududiy rivojlanish natijalarini viloyat va tumanlar kesimida aniq ko'rsatkichlar asosida qiyoslash hamda natijalarni belgilovchi omillarni aniqlashga ehtiyoj saqlanib qolmoqda.

Mahalliy olimlarning tadqiqotlarida hududiy rivojlanish, asosan, muayyan hudud yoki alohida iqtisodiy omil doirasida o'rganilgan. Xususan, S. Sh. Mirziyoyeva O'zbekistonda milliy va hududiy taraqqiyot strategiyalarini ishlab chiqish tajribasini retrospektiv jihatdan tahlil qilgan<sup>6</sup>. Tadqiqotga ko'ra, mustaqillikning dastlabki yillarida — mustaqillikka erishilgan 1991-yildan 1997-yilgacha bo'lgan davrda — ko'pchilik sobiq ittifoqdosh davlatlar singari O'zbekistonda ham uzoq muddatli strategik hujjatlar o'rniga yillik iqtisodiy dasturlarga ustuvorlik berilgan. 1997-yildan boshlab esa mamlakat rahbariyati e'lon qilgan yil nomiga mos ustuvor yo'nalishlarga muvofiq joriy (yillik) iqtisodiy dasturlar muntazam ishlab chiqilgan. Jumladan, 1997-yil «Inson manfaatlar yili», 1998-yil esa «Oila yili» deb e'lon qilinib, tegishli davlat dasturlari amalga oshirilgan<sup>7</sup>. Muallifning ta'kidlashicha, mamlakat miqyosidagi to'liq qamrovli uzoq muddatli strategiya ilk bor 2016–2017-yillarda asoslab berilgan. Bunga Prezidentning 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi» (2017–2021-yillarga mo'ljallangan beshta ustuvor yo'nalish) misol bo'la oladi. Muallif ushbu beshta yo'nalishni alohida sanab o'tadi: davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish; qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini isloh qilish; iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish; ijtimoiy sohani rivojlantirish; xavfsizlikni ta'minlash, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni mustahkamlash hamda muvozanatli, o'zaro manfaatli va konstruktiv tashqi siyosat yuritish<sup>8</sup>. Strategiyani muvofiqlashtirish uchun Prezident raisligida Milliy komissiya tuzilib, uni besh bosqichda — har biriga alohida nom berilgan yillik Davlat dasturlari orqali — amalga oshirish ko'zda tutilgan. Xususan, muallif 2017-yilni «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlar yili», 2018-yilni «Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili», 2019-yilni esa «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili» sifatida keltiradi. Shuningdek, islohotlar yuzasidan ochiq muloqot va ekspert-jamoatchilik nazoratini ta'minlash maqsadida Toshkentda «Strategiya rivojlanish» markazi tashkil etilgani ta'kidlanadi<sup>9</sup>. Shu bilan birga, muallif 2018-yilda «Buyuk kelajak» xalqaro nodavlat notijorat tashkiloti — chet elda istiqomat qiluvchi yuqori malakali vatandoshlarni birlashtirgan tashabbus — tomonidan ishlab chiqilgan, 17 yillik muddatga («O'zbekiston – 2035»gacha) mo'ljallangan hamda mamlakatni dunyoning 50 ta iqtisodiy rivojlangan davlati qatoriga kiritishni maqsad qilgan rivojlanish strategiyasi konsepsiyasini ham alohida tilga oladi. Biroq bu hujjat rasmiy davlat strategiyasi emas, balki jamoatchilik muhokamasiga taqdim etilgan tashabbus sifatida shakllangan<sup>10</sup>.

Muallif hududiy strategiyalarning shakllanish jarayonini ham alohida tahlil qiladi. Uning tadqiqotiga ko'ra, 2000-yilgacha O'zbekistonda hududlarni uzoq muddatli rivojlantirish bo'yicha yaxlit strategik qarash shakllanmagan. Birinchi tizimli urinish sifatida 2006-yil 20-aprelda Prezident farmoyishi bilan 2007–2011-yillarga mo'ljallangan yagona kompleks hududiy rivojlanish strategiyasi dasturini ishlab chiqish bo'yicha komissiya tuzilgan. Biroq strategiyalash sohasida malakali mutaxassislar yetishmagani hamda ish, asosan, rasmiy statistik ko'rsatkichlarga tayangan an'anaviy balans usullari asosida olib borilgani sababli bu urinish kutilgan natijani bermagan va ishlanma loyiha darajasida qolib ketgan<sup>11</sup>. Shundan so'ng bir qator viloyatlarda xalqaro tashkilotlar — BMT Taraqqiyot dasturi (BMTTD) va GIZ (Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati) — ko'magida mahalliy tashabbuslar asosida hududiy strategiyalar ishlab chiqilgan. Xususan, 2008-yilda Qashqadaryo viloyati uchun, asosan, qashshoqlikni qisqartirishga qaratilgan xalqaro uslubiy yondashuvlar asosida, 2011–2012-yillarda Andijon viloyati uchun, 2012-yilda Surxondaryo viloyati uchun, 2013-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi uchun, 2014-yilda Xorazm viloyati uchun va 2015-yilda Toshkent viloyati uchun ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyalari loyihalari tayyorlangan<sup>12</sup>. Muallifning tahliliga ko'ra, bu strategiyalarning barchasi tuzilishi jihatidan bir-biriga o'xshash bo'lib, uch qismdan iborat bo'lgan. Birinchi qismda hududning joriy holati va rivojlanish salohiyati SWOT-tahlil (muallif o'zi taklif etgan, akademik V. L. Kvint ishlarida asoslangan OTSW — imkoniyat, tahdid, kuchli va zaif tomonlar — tartibida) asosida baholangan. Ikkinchi qismda hududiy rivojlanish stsenariylari, umumiy maqsad hamda ustuvor yo'nalishlar — sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohaslarini rivojlantirish — belgilangan.

6 Mirziyoyeva S. Sh. Analysis of Uzbekistan's Experience in Development of National and Regional Strategies // Upravlencheskoye konsultirovaniye. – 2019. – № 3. – P. 49–61. – DOI: 10.22394/1726-1139-2019-3-49-61.

7 Mirziyoyeva S. Sh. Analysis of Uzbekistan's Experience in Development of National and Regional Strategies // Upravlencheskoye konsultirovaniye. – 2019. – № 3. – P. 51–52. – DOI: 10.22394/1726-1139-2019-3-49-61.

8 Mirziyoyeva S. Sh. Analysis of Uzbekistan's Experience in Development of National and Regional Strategies // Upravlencheskoye konsultirovaniye. – 2019. – № 3. – P. 52–53. – DOI: 10.22394/1726-1139-2019-3-49-61.

9 Mirziyoyeva S. Sh. Analysis of Uzbekistan's Experience in Development of National and Regional Strategies // Upravlencheskoye konsultirovaniye. – 2019. – № 3. – P. 53–54. – DOI: 10.22394/1726-1139-2019-3-49-61.

10 Mirziyoyeva S. Sh. Analysis of Uzbekistan's Experience in Development of National and Regional Strategies // Upravlencheskoye konsultirovaniye. – 2019. – № 3. – P. 54. – DOI: 10.22394/1726-1139-2019-3-49-61.

11 Mirziyoyeva S. Sh. Analysis of Uzbekistan's Experience in Development of National and Regional Strategies // Upravlencheskoye konsultirovaniye. – 2019. – № 3. – P. 54–55. – DOI: 10.22394/1726-1139-2019-3-49-61.

12 Mirziyoyeva S. Sh. Analysis of Uzbekistan's Experience in Development of National and Regional Strategies // Upravlencheskoye konsultirovaniye. – 2019. – № 3. – P. 55–56. – DOI: 10.22394/1726-1139-2019-3-49-61.



Uchinchi qism esa strategiyani amalga oshirishning tashkiliy-amaliy mexanizmi va monitoring tizimiga bag'ishlangan<sup>13</sup>. Hududlarning o'ziga xos xususiyatlari ustuvor yo'nalishlarda ham aks etgan: Andijon viloyatida mehnat sig'imi yuqori tarmoqlar va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga, Surxondaryo viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasida tabiiy-xomashyo salohiyatidan foydalanish asosida sanoat salohiyatini oshirishga, Xorazm va Toshkent viloyatlarida esa innovatsiya va turizm salohiyatini ro'yobga chiqarishga alohida urg'u berilgan<sup>14</sup>. Keyingi davrdagi ayrim urinishlarning kutilgan natijani bermagani strategik rejalashtirish bo'yicha malakali mutaxassislarning yetishmasligi va uslubiy yondashuvlarning zamon talablariga to'liq mos kelmagani bilan izohlanadi. Muallifning ta'kidlashicha, bu strategiyalarning aksariyati amalda to'liq ishga tushmagan, ba'zilar esa hatto rasmiy hujjat sifatida tasdiqlanmay, loyiha darajasida qolib ketgan.

Milliy va hududiy strategiyalarning yagona uslubiy yondashuvga tayanishi, maqsad va vazifalarning o'zaro muvofiqlashtirilishi, shuningdek, zarur mehnat, moddiy va moliyaviy resurslar bilan ta'minlanishi hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarishning asosiy shartlari sifatida ko'rsatilgan. Muallif, shuningdek, hududiy strategiyalar puxta tahlilga va yagona metodologiyaga asoslanmasa, ular amalda bajarilmay qolish xavfiga duch kelishini alohida ta'kidlaydi. Bundan tashqari, samarali hududiy siyosat faqat mahalliy resurslarga tayanib qolmasligi, balki chegaradosh hududlar bilan transchegaraviy hamkorlikni ham hisobga olishi lozimligi tadqiqotning muhim xulosalaridan biri sifatida qayd etilgan<sup>15</sup>.

Yana bir mahalliy olim boshchiligidagi tadqiqotdan misol keltirsak, «Yangi O'zbekiston» nashrida hududlarni ilmiy asosda rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar ham yoritilgan. Xususan, Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining bir guruh olim va tadqiqotchilari Jizzax viloyatining Baxmal tumanidagi ijtimoiy-iqtisodiy holatni o'rganib, hududning rivojlanish imkoniyatlari va istiqbolli yo'nalishlarini aniqlagan. Tahlilda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Baxmal tumanida 445 ming so'mni tashkil etib, respublika va Jizzax viloyati ko'rsatkichlaridan ancha past ekani, shuningdek, ro'yxatdan o'tgan tadbirkorlik subyektlarining salmoqli qismi faoliyat yuritmayotgani qayd etilgan.

Universitet olimlari va tuman mutaxassislaridan iborat ishchi guruh sanoat, qishloq xo'jaligi, turizm, bandlik va mehnat munosabatlari bo'yicha mavjud muammolar bazasini shakllantirib, tumanning ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan uch yillik amaliy loyihalar bo'yicha takliflar ishlab chiqqan. Professor Qo'ng'iro'tboy Sharipovning Baxmal tumani rahbariyati bilan uchrashuvlarida esa hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, kadrlar salohiyatini oshirish va innovatsion loyihalarni amaliyotga joriy etishda universitetning ishtiroki masalalari muhokama qilingan [19].

Biroq manbada ushbu ilmiy-amaliy ishlar va ishlab chiqilgan takliflarning keyingi yillarda Baxmal tumanining ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlariga qanday ta'sir qilgani haqida ma'lumot keltirilmagan. **Shu bois keyingi tadqiqotlarda Baxmal tumanida aniqlangan muammolar va taklif etilgan loyihalarning amaliy natijalarini keyingi yillar ko'rsatkichlari asosida baholash, ularning bandlik, tadbirkorlik faolligi, sanoat ishlab chiqarishi va aholi daromadlariga ta'sirini aniqlash maqsadga muvofiq. Shuningdek, bunday tadqiqotlarni boshqa tuman va viloyatlarda ham bir xil mezonlar asosida o'tkazish hududlar natijalarini qiyoslash imkonini beradi. To'plangan dinamik ma'lumotlar asosida ekonometrik va prognozli tahlillarni amalga oshirish esa hududlarning kelgusi rivojlanish tendensiyalarini baholash, mavjud muammolarni oldindan aniqlash hamda resurslarni qaysi yo'nalishlarga ustuvor ajratish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqish imkonini beradi**<sup>16</sup>.

Shuningdek, B. Berkinov Sayxunobod tumani tajribasi asosida mahallani inklyuziv rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy modelini shakllantirgan<sup>17</sup>. Tadqiqot mahalla darajasidagi iqtisodiy mexanizmlarni alohida hudud misolida ochib bergani bilan e'tiborga molik. S. Toshpo'latov esa xorijiy to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning O'zbekiston hududlari rivojlanishiga ta'sirini tahlil qilgan<sup>18</sup>.

Bu yondashuv bir xil milliy dasturlarning nega hududlarda turlicha natija berishini tushuntirishda muhim ahamiyatga ega. Markazda ishlab chiqilgan yagona mexanizmning amaliy samarasi hududning iqtisodiy salohiyati, mavjud resurslari, boshqaruv imkoniyatlari va strategik rejalashtirish sifatiga qarab farqlanadi. Ushbu

13 Mirziyoyeva S. Sh. Analysis of Uzbekistan's Experience in Development of National and Regional Strategies // Upravlencheskoye konsultirovaniye. – 2019. – № 3. – P. 56. – DOI: 10.22394/1726-1139-2019-3-49-61.

14 Mirziyoyeva S. Sh. Analysis of Uzbekistan's Experience in Development of National and Regional Strategies // Upravlencheskoye konsultirovaniye. – 2019. – № 3. – P. 56–57. – DOI: 10.22394/1726-1139-2019-3-49-61.

15 Mirziyoyeva S. Sh. Analysis of Uzbekistan's Experience in Development of National and Regional Strategies // Upravlencheskoye konsultirovaniye. – 2019. – № 3. – P. 49–61. – DOI: 10.22394/1726-1139-2019-3-49-61.

16 Hududlarni ilmiy asosda rivojlantirishga kirishildi [Elektron resurs] // Yuz.uz. – 2020. – 7-dek. – URL: <https://yuz.uz/uz/news/hududlarni-ilmiy-asosda-rivojlantirishga-kirishildi>.

17 Berkinov B. "Sayxunobod tajribasi" — mahallalarni inklyuziv rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy modeli [Elektron resurs] // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2025. – URL: [maqola sahifasi](#).

18 Tashpulatov S. The Impact of Foreign Direct Investment on Regional Development in Uzbekistan // Eurasian Journal of Economic Research. – 2023. – Vol. 11, No. 1. – P. 45–61.





farazni tekshirish uchun bir xil dastur doirasida faoliyat yuritgan hududlarni aniq ko'rsatkichlar asosida qiyoslash talab etiladi. Mazkur masala maqolaning tahliliy qismida ko'rib chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda Murojaatnomasi yuzasidan bildirilgan ekspert mulohazalarida ham mazkur masalaga e'tibor qaratilgan. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi qo'mita raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor Nodir Jumayev va Oliy Majlis Senati qo'mita raisi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan iqtisodchi, professor Erkin Gadoyevning qo'shma maqolasida kambag'allikni qisqartirish siyosati faqat ijtimoiy nafaqalarni oshirishga emas, balki aholini doimiy daromad manbalari bilan ta'minlashga qaratilgani ta'kidlangan<sup>19</sup>. Mualliflar mahalla darajasidagi modelni ushbu siyosatning o'ziga xos va innovatsion mexanizmi sifatida baholagan. Ularning fikricha, mahalla nafaqat ijtimoiy institut, balki mahalliy mehnat bozorini shakllantiruvchi iqtisodiy platformaga ham aylanmoqda. Biroq ushbu ekspert bahosida mahalla darajasidagi modelning natijadorligi hududlar kesimida empirik jihatdan o'lchanmagan.

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi direktori Obid Hakimov xalqaro ekspertlar ishtirokidagi muhokamalarda O'zbekiston tajribasining o'ziga xos jihatini mahalla darajasida ishlash tizimi bilan bog'lagan. Har bir mahallaga mas'ul shaxsning birlashtirilishi hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni bevosita joyida aniqlash va manzilli hal etish imkonini bergan. O. Hakimov milliy kambag'allik darajasi 2021-yildagi 17 foizdan so'nggi yillarda 7 foizdan pastga tushganini qayd etgan<sup>20</sup>. Manbada aniq yil ko'rsatilmagan bo'lsa-da, ushbu baho mazmunan 2025-yil yakuniy ko'rsatkichi — 5,8 foizga mos keladi. Mahalla tizimining samaradorligi esa alohida viloyat, tuman va mahallalar kesimida qiyosiy o'rganilmagan. Shu sababli bir xil mexanizm turli hududlarda qanday natija berayotgani va bu farqlarni qaysi omillar yuzaga keltirayotganini aniqlash ilmiy jihatdan muhim.

Hududiy islohotlarga oid tahlillarda o'zbek iqtisodchi-tahlilchilarining ilmiy-ommabop chiqishlari ham alohida o'rin tutadi. Jumladan, iqtisodchi Behzod Hoshimov kambag'allikni qisqartirishga oid tahlillarida uzoq muddatli natijaning asosiy omili iqtisodiy o'sish ekanini, qisqa muddatli tarqatma yordam yoki alohida ijtimoiy intervensiyalarning o'zi esa barqaror natija bermasligini ta'kidlagan<sup>21</sup>. Uning fikricha, kambag'allikni o'lchash usullari xilma-xil bo'lgani sababli hududlar kesimida turli mezonlar bo'yicha turlicha natijalar qayd etilishi tabiiy. Shu bois ko'rsatkichlarni faqat yakuniy qiymati bo'yicha emas, balki ularning dinamikasi va tarkibi bo'yicha ham tahlil qilish zarur. Bu qarash mazkur tadqiqotda qo'llanilgan hududlararo qiyosiy tahlil yondashuviga mos keladi.

Kambag'allikni qisqartirish natijalarini xolis baholashda davlat tashkilotlari huzuridagi mustaqil tahlil markazlari mutaxassislarining qarashlari ham e'tiborga loyiq. Ijtimoiy himoya milliy agentligi huzuridagi Ijtimoiy siyosat laboratoriyasining Inson kapitalini rivojlantirish dasturi yetakchisi Ulug'bek Tursunov kambag'allikning inson kapitaliga, xususan, ta'lim sifatiga ta'sirini tahlil qilgan. U Amartya Sen yondashuviga tayangan holda daromad darajasining o'zi farovonlikni to'liq ifodalamasligini, kambag'allikni qisqartirishning pirovard maqsadi esa inson qobiliyatlari va tanlov erkinligini kengaytirish ekanini ta'kidlagan.

F. M. Murodxo'jayeva Namangan viloyati misolida davlatning mintaqaviy siyosatini o'rganib, hududiy rivojlanishning o'ziga xos jihatlari va mavjud muammolarini tahlil qilgan<sup>22</sup>. Tadqiqot muayyan hududdagi iqtisodiy jarayonlarni chuqurroq o'rganishga qaratilgan. Yuqorida ko'rib chiqilgan ilmiy ishlar tahlili hududiy islohotlarni bir nechta viloyat va tumanlar kesimida yagona ko'rsatkichlar asosida qiyoslash zarurligini ko'rsatadi. Bu orqali qaysi hududlarda yuqori natijalar qayd etilayotgani hamda ushbu natijalarga qanday iqtisodiy va institutsional omillar ta'sir etayotgani aniqlanadi.

Ko'rib chiqilgan tadqiqotlarni mazmuniga ko'ra ikki asosiy yo'nalishga ajratish mumkin. Pomfret va Anderson, Babayev va hammualliflar, Mirziyoyeva, Jumayev va Gadoyev hamda Hoshimov tadqiqotlarida, asosan, milliy darajadagi umumiy tendensiyalar, institutsional omillar va konseptual yondashuvlar tahlil qilingan. Berkinov, Toshpo'latov, Murodxo'jayeva va Sharipov rahbarligidagi tadqiqot guruhi ishlarida esa muayyan hudud yoki alohida omil — Sayxunobod tajribasi, xorijiy to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar, Namangan viloyatidagi jarayonlar yoki Baxmal tumani misoli — chuqurroq o'rganilgan. Hakimov ilgari surgan mahalla darajasida ishlash yondashuvi O'zbekistondagi hududiy islohotlarning muhim xususiyatini ifodalaydi. Biroq ushbu yondashuvning turli hududlardagi natijalari qiyosiy misollar asosida alohida tahlil qilinmagan.

Ilmiy adabiyotlarda bir xil milliy dastur doirasida faoliyat yuritayotgan hududlarda turlicha natijalar yuzaga kelishining sabablari yetarlicha ochib berilmagan. Hududga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi, mavjud iqtisodiy salohiyat, mahalliy boshqaruv sifati va rahbarlarning mas'uliyati kabi omillarning yakuniy natijaga ta'sirini qiyosiy baholash ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga xizmat qiladi.

19 Jumayev N., Gadoyev E. Murojaatnoma: xalq farovonligi yo'lidagi aniq marralar [Elektron resurs] // Yuz.uz. — 2026. — 13 yan. — URL: <https://yuz.uz/uz/news/murojaatnoma-xalq-farovonligi-yolidagi-aniq-marralar>.

20 Ibrakhimova S. From Local Mahallas to a Global Strategy: Uzbekistan's Fight Against Poverty [Elektron resurs] // Euronews. — 2025. — 23 sent. — URL: [Euronews maqolasi](https://euronews.com/uzbekistan-s-fight-against-poverty).

21 Hoshimov B. "Yagona samarali usul — iqtisodiyotning o'sishi". Behzod Hoshimov — kambag'allikni qisqartirish haqida [Elektron resurs] // Gazeta.uz. — 2025. — 20 sent. — URL: [Gazeta.uz maqolasi](https://gazeta.uz).

22 Murodxo'jayeva F. M. Davlatning mintaqaviy siyosati va Namangan viloyati iqtisodiyotini rivojlantirishning ayrim masalalari // Iqtisodiyot va ta'lim. — 2017.



Mazkur maqolada respublika miqyosidagi umumiy tendensiyalar tahlili Uzun va Denov tumanlari misolidagi qiyosiy keys bilan to'ldiriladi. Har ikki tuman bir xil milliy dastur doirasida faoliyat yuritgan bo'lsa-da, erishilgan natijalardagi farqlar ularni qiyosiy o'rganish uchun asos bo'ladi. Tahlilda investitsiyalar miqdori va mahalliy rahbariyat mas'uliyati kabi omillarning natijaga ta'siri o'rganilib, ularning kuzatilgan farqlarni izohlashdagi o'zni baholanadi [1]. Shu tariqa, nazariy qarashlar aniq hududlar tajribasi bilan bog'lanib, hududiy islohotlar natijadorligini belgilovchi omillar amaliy ma'lumotlar asosida qiyosiy tahlil qilinadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy, statistik, keys-stadi (amaliy vaziyat tahlili) va me'yoriy-huquqiy tahlil usullaridan foydalanildi. Mazkur usullar hududiy rivojlanish, aholi bandligi va kambag'allikni qisqartirish jarayonlarining dinamikasi hamda hududlar o'rtasidagi tafovutlarni kompleks baholash maqsadida tanlandi.

Qiyosiy tahlil usuli orqali hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari o'zaro solishtirilib, ularning o'zgarish dinamikasi, umumiy va farqli jihatlarini aniqlandi. Statistik tahlilda rasmiy ma'lumotlar asosida ko'rsatkichlarning yillar bo'yicha o'zgarishi, hududlararo tafovutlar va respublika ko'rsatkichiga nisbatan farqlari foiz hamda foiz punktlarida hisoblandi.

Keys-stadi usuli hududiy islohotlarning amaliy natijalarini alohida holatlar misolida chuqur o'rganish, ajratilgan resurslar, amalga oshirilgan loyihalar va erishilgan natijalar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun qo'llanildi. Ushbu yondashuv bir xil institutsional va dasturiy sharoitlarda natijalarning farqlanishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash imkonini berdi.

Me'yoriy-huquqiy tahlil usuli orqali hududiy rivojlanish, bandlik va kambag'allikni qisqartirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar o'rganilib, ularda belgilangan maqsadlar, vazifalar va amalga oshirish mexanizmlari tahlil qilindi. Shuningdek, tadqiqotda ilmiy adabiyotlar, rasmiy statistik ma'lumotlar va ochiq manbalardagi axborotlarni tizimlashtirish hamda umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqotni tayyorlash jarayonida sun'iy intellekt vositalaridan 10 foiz miqdorida foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Hududiy islohotlar natijalarini baholashda mamlakat miqyosidagi umumiy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda, viloyat, tuman va mahalla darajasidagi o'zgarishlarni ham tahlil qilish muhim. Iqtisodiy o'sish, bandlikning kengayishi va kambag'allikning qisqarishi hududlarda turlicha namoyon bo'ladi. Ayrim hududlarda mavjud iqtisodiy salohiyat va yangi loyihalar yuqori natija bersa, boshqalarida infratuzilma, bandlik imkoniyatlari va boshqaruv bilan bog'liq omillar natijaga ta'sir ko'rsatadi.

Tahlilda dastlab O'zbekistonda kambag'allik va bandlik ko'rsatkichlarining umumiy dinamikasi ko'rib chiqiladi, so'ngra natijalar hududlar kesimida qiyoslanadi. Navoiy, Xorazm, Namangan, Buxoro, Samarqand, Jizzax va Sirdaryo viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda Toshkent shahri bo'yicha mavjud ko'rsatkichlar hududlar o'rtasidagi tafovutlarni ochib beradi. Surxondaryo viloyatining Uzun va Denov tumanlari misolida esa ajratilgan resurslarning amaliy natijalarga aylanishi va mahalliy boshqaruv omili alohida tahlil qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 26-dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi to'qqiz yil davomida amalga oshirilgan islohotlar natijasida 8,5 milliondan ziyod aholi kambag'allikdan chiqarilgan, ishsizlik darajasi esa ikki barobar qisqargan<sup>23</sup>. Bu raqamlar mamlakatda aholi bandligini oshirish va kambag'allikni qisqartirish borasida sezilarli natijalarga erishilganini ko'rsatadi.

Milliy statistika qo'mitasi, Jahon banki hamda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining qo'shma baholashlariga ko'ra, respublikada kambag'allik darajasi 2023-yildagi 11 foizdan 2024-yilda 8,9 foizgacha, 2025-yilda esa 5,8 foizgacha pasaygan (1-jadval; 1-diagramma)<sup>24</sup>. 2023–2025-yillar oralig'ida kambag'allik darajasi 5,2 foiz punktga kamaygan.

Pasayish sur'ati ham yillar kesimida o'zgargan. 2023-yildan 2024-yilgacha kambag'allik darajasi 2,1 foiz punktga kamaygan bo'lsa, 2024-yildan 2025-yilgacha bu ko'rsatkich 3,1 foiz punktni tashkil etgan. Ya'ni 2025-yilda kambag'allikning qisqarish sur'ati oldingi yilga nisbatan 1 foiz punktga yuqori bo'lgan. Ushbu ko'rsatkichlar rasmiy statistik ma'lumotlarga ham mos keladi.

Respublika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich hududlardagi holatni to'liq aks ettirmaydi. Kambag'allikning qisqarish sur'ati viloyatlar kesimida farqlanadi. Shu sababli keyingi tahlilda respublika miqyosidagi umumiy

23 Mirziyoyev Sh. M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi, 2025-yil 26-dekabr [Elektron resurs] // Dunyo.info. – 2025. – 26 dek. – URL: [Dunyo.info](https://dunyo.info).

24 Mirziyoyev Sh. M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi [Elektron resurs]. – 2025. – 26 dek. – URL: [President.uz](https://president.uz) — [Murojaatnoma](https://murojaatnoma.uz).



dinamika hududiy ko'rsatkichlar bilan qiyoslanib, qaysi viloyatlarda natijalar yuqori yoki past ekani hamda hududlar o'rtasidagi tafovutlar ko'rib chiqiladi.

1-jadval

O'zbekistonda kambag'allik va bandlik ko'rsatkichlarining milliy dinamikasi, 2022–2025-yy.


| Ko'rsatkich                                    | 2022 y. | 2023 y. | 2024 y.        | 2025 y.           |
|------------------------------------------------|---------|---------|----------------|-------------------|
| Kambag'allik darajasi, %                       | ~14,0   | 11,0    | 8,9            | 5,8               |
| Ishsizlik darajasi, %                          | —       | —       | 5,5            | 4,9               |
| Yil davomida kambag'allikdan chiqqanlar soni   | —       | —       | 719 ming kishi | ~1,5 mln kishi    |
| «Kambag'allikdan xoli» maqomi olgan mahallalar | —       | —       | —              | 1435 ta (ilk bor) |

**Manba:** Milliy statistika qo'mitasi, Jahon banki va Prezidentning Oliy Majlisga Murojaatnomasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan [1; 2; 6].

Kambag'allikdan chiqqanlar soni manbalarda keltirilgan holicha berildi. Mamlakat aholisi 38 million kishi ekanini hisobga olsak, 2025-yildagi 3,1 foiz punktik pasayish taxminan 1,2 million kishiga to'g'ri keladi. Manbada ko'rsatilgan 1,5 millionga yaqin kishi esa yil davomida kambag'allik ro'yxatidan chiqqanlarning yalpi oqimi sifatida hisoblangan bo'lishi mumkin. Ikki ko'rsatkichning metodologik asosi bir xil bo'lmagan sababli keyingi tahlilda asosiy o'lchov sifatida kambag'allik darajasidan foydalanildi.

Bu yerda qo'llanilgan 38 million kishi — 2025-yil boshidagi statistik baholarga asoslangan taxminiy ko'rsatkich edi. 2026-yil 15-yanvarda o'tkazilgan aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishning dastlabki natijalariga ko'ra (2026-yil 30-iyunda e'lon qilingan), mamlakat aholisi haqiqatda 39 047 321 kishini (taxminan 39,05 million) tashkil etib, bu avvalgi statistik hisob-kitoblardan 810,6 ming kishiga (2,1 foizga) ko'proq chiqdi<sup>25</sup>. Yangilangan aholi soni asosida hisoblansa ham yuqoridagi taxminiy ko'rsatkichlar sezilarli o'zgarmaydi, biroq kelgusi tahlillarda aynan shu rasmiy raqamga tayanish tavsiya etiladi.

1-diagramma. O'zbekistonda kambag'allik darajasining 2022–2026-yillardagi dinamikasi (%)



**Manba:** mualliflar tomonidan [1; 2; 6] asosida tuzilgan.

Diagramma ma'lumotlari kambag'allikning qisqarish sur'ati yillar davomida bir xil bo'lmaganini ko'rsatadi. 2022–2023-yillarda kambag'allik darajasi taxminan 3,0 foiz punktgacha kamaygan bo'lsa, 2023–2024-yillarda bu ko'rsatkich 2,1 foiz punktni tashkil etgan. 2024–2025-yillarda esa pasayish yana tezlashib, 3,1 foiz punktgacha yetgan. Uch yillik davrda kambag'allikning qisqarish sur'ati dastlab sekinlashgan, keyingi yilda esa yana jadallashgan. 2026-yil uchun keltirilgan ko'rsatkich erishilgan natija emas, balki prognoz hisoblanadi<sup>26</sup>. Diagrammada aks

<sup>25</sup> O'zbekiston Respublikasida 2026-yilda o'tkazilgan aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishning dastlabki natijalari [Elektron resurs] // Milliy statistika qo'mitasi. – 2026. – 30-iyun. – URL: .

<sup>26</sup> O'zbekistonda 2024-yilda kambag'allik darajasi 8,9 foizga qisqardi [Elektron resurs] // Gazeta.uz. – 2025. – 3 febr. – URL: [Gazeta.uz](https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz) maqolasi.



ettirilgan 4,5 foizlik dastlabki prognoz Prezidentning 2025-yil 26-dekabrdagi Murojaatnomasiga asoslangan edi. 2026-yil 22-fevralda e'lon qilingan yangilangan vazifalarga ko'ra, joriy yilda kambag'allik darajasini 2,8 foizgacha, ishsizlik darajasini 4,5 foizgacha tushirish, shuningdek, 1 million kishini doimiy ish o'rni bilan ta'minlash, 4 million aholining daromadini oshirish va 263 ming kambag'al oilani ijtimoiy xizmatlar bilan qamrab olish ko'zda tutilgan<sup>27</sup>. Demak, kambag'allikka oid maqsadli ko'rsatkich yil davomida 4,5 foizdan 2,8 foizgacha aniqlashtirilib, yanada qat'iyroq belgilandi.

Prezidentning Murojaatnomasida 2026-yilda kambag'allik va ishsizlik darajasini 4,5 foizgacha tushirish, «kambag'allikdan xoli» mahallalar sonini 3,5 mingga yetkazish vazifasi belgilangan [6]. Ushbu maqsadlarga erishish, avvalo, hududlardagi o'zgarishlarga bog'liq. Respublika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich pasayib borayotgan bo'lsa-da, viloyatlar kesimida vaziyat bir xil emas.

2024-yil yakunlari buni yaqqol ko'rsatadi. Eng past kambag'allik darajasi Navoiy viloyatida qayd etilib, 5,7 foizni tashkil etgan. Xorazm viloyatida esa bu ko'rsatkich 11,9 foizni tashkil etgan<sup>28</sup>.

Buxoro va Samarqand viloyatlari misolida masalaning yana bir muhim jihati ko'rinadi. Har ikki hududda kambag'allik darajasi bir yil davomida o'rtacha 3,1 foiz punktga qisqargan. Natijada bu ko'rsatkich Buxoroda 8,7 foizni, Samarqandda esa 7,5 foizni tashkil etgan(2-jadval)<sup>29</sup>.

Bu raqamlar hududlarni baholashda faqat yakuniy ko'rsatkich bilan cheklanish yetarli emasligini ko'rsatadi. Masalan, kambag'allik darajasi nisbatan yuqori bo'lgan hududda uning tez sur'atlarda pasayishi ham muhim natija hisoblanadi. Shu bois hududiy islohotlarni tahlil qilishda ikki mezon — kambag'allikning amaldagi darajasi va uning muayyan davrdagi o'zgarishi — birgalikda hisobga olinishi zarur.

2-jadval  
2023–2024-yillarda ayrim hududlarda kambag'allik darajasi va uning o'zgarishi

| Hudud                                    | 2023 y., %       | 2024 y., % | O'zgarish, foiz punkti |
|------------------------------------------|------------------|------------|------------------------|
| Navoiy viloyati (eng past ko'rsatkich)   | e'lon qilinmagan | 5,7        | hisoblanmadi           |
| Xorazm viloyati (eng yuqori ko'rsatkich) | e'lon qilinmagan | 11,9       | hisoblanmadi           |
| Namangan viloyati                        | 10,4             | 7,6        | –2,8                   |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi            | 13,6             | 10,8       | –2,8                   |
| Buxoro viloyati                          | 11,8             | 8,7        | –3,1                   |
| Samarqand viloyati                       | 10,6             | 7,5        | –3,1                   |
| Respublika bo'yicha o'rtacha             | 11,0             | 8,9        | –2,1                   |

**Manba:** Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi, Statistika agentligi hamda Jahon banki ma'lumotlari asosida (Gazeta.uz, 03.02.2025) muallif tomonidan tuzilgan<sup>30</sup>.

Navoiy va Xorazm viloyatlari manbada 2024-yilda kambag'allik darajasi eng past va eng yuqori bo'lgan hududlar sifatida keltirilgan. Ularning 2023-yilgi ko'rsatkichlari e'lon qilinmagani sababli ushbu ikki viloyat bo'yicha o'zgarish sur'ati hisoblanmadi va sur'at tahliliga kiritilmadi.

Jadvaldagi raqamlarni talqin qilishda yana bir jihatga e'tibor qaratish lozim. O'zgarish sur'ati hisoblangan to'rt hudud — Namangan, Qoraqalpog'iston, Buxoro va Samarqandda 2023–2024-yillarda kambag'allik darajasi 2,8–3,1 foiz punktga kamaygan. Respublika bo'yicha o'rtacha pasayish esa 2,1 foiz punktni tashkil etgan. Bu jadval mamlakatdagi o'rtacha holatni emas, kambag'allik nisbatan tez qisqargan hududlar guruhini aks ettiradi.

27 2026-yilda kambag'allik darajasi 2,8 foizgacha va ishsizlik darajasi 4,5 foizgacha pasaytiriladi [Elektron resurs] // O'zA. – 2026. – 22 fevr. – URL: [https://uza.uz/en/posts/2026-yilda-kambag'allik-darajasi-28-foizgacha-va-ishsizlik-darajasi-45-foizgacha-pasaytiriladi\\_823228](https://uza.uz/en/posts/2026-yilda-kambag'allik-darajasi-28-foizgacha-va-ishsizlik-darajasi-45-foizgacha-pasaytiriladi_823228).

28 O'zbekistonda 2024-yilda kambag'allik darajasi 8,9 foizga qisqardi [Elektron resurs] // Gazeta.uz. – 2025. – 3 fevr. – URL: <https://www.gazeta.uz/uz/2025/02/03/poverty/>.

29 O'zbekistonda 2024-yilda kambag'allik darajasi 8,9 foizga qisqardi [Elektron resurs] // Gazeta.uz. – 2025. – 3 fevr. – URL: <https://www.gazeta.uz/uz/2025/02/03/poverty/>.

30 O'zbekistonda 2024-yilda kambag'allik darajasi 8,9 foizga qisqardi [Elektron resurs] // Gazeta.uz. – 2025. – 3 fevr. – URL: <https://www.gazeta.uz/uz/2025/02/03/poverty/>.





2024–2025-yillar tahlilida boshqa hududlar — Jizzax, Sirdaryo, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahri bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Har ikki davr tahlilida Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasi uchraydi. Shundan, Qoraqalpog'iston bo'yicha 2023, 2024 va 2025-yillar ko'rsatkichlari to'liq mavjud bo'lib, u mazkur tadqiqotda uzluksiz uch yillik dinamikasini kuzatish imkonini beruvchi yagona hududdir. Qolgan hududlar bo'yicha ikki davr ko'rsatkichlarini bir xil hududlarning uzluksiz dinamikasi sifatida talqin qilish to'g'ri emas — ular manbalarda e'lon qilingan ma'lumotlar doirasida alohida qiyoslanadi.

2025-yil yakunlari ayrim hududlarda kambag'allik ancha tez qisqarganini ko'rsatadi. Jumladan, Jizzax viloyatida kambag'allik darajasi 11,8 foizdan 5,8 foizgacha, Xorazm viloyatida 11,9 foizdan 6,7 foizgacha, Sirdaryo viloyatida 11,3 foizdan 6,2 foizgacha, Qoraqalpog'iston Respublikasida esa 10,8 foizdan 6,6 foizgacha kamaygan. Toshkent shahrida bu ko'rsatkich 7,3 foizdan 3,5 foizgacha pasaygan (2-diagramma)<sup>31</sup>. Bundan tashqari, 2026-yil 20-avgustda Prezident tomonidan Xorazm viloyati bo'yicha belgilangan qo'shimcha vazifalarga ko'ra, yil oxirigacha yana 81 ming aholini kambag'allikdan chiqarish va 39 ming ishsizni doimiy ish bilan ta'minlash, shu maqsadda 6,4 trillion so'm resurs yo'naltirish rejalashtirilgan.<sup>32</sup>

Foiz punktida hisoblanganda, hududlar o'rtasidagi farq yanada aniq ko'rinadi: Jizzaxda kambag'allik darajasi 6 foiz punktga, Xorazmda 5,2 foiz punktga, Sirdaryoda 5,1 foiz punktga, Qoraqalpog'iston Respublikasida 4,2 foiz punktga, Toshkent shahrida esa 3,8 foiz punktga kamaygan. Kambag'allik darajasi nisbatan yuqori bo'lgan Jizzax, Xorazm, Sirdaryo va Qoraqalpog'istonda keskin pasayish qayd etilgani e'tiborga molik. Bu natijalar hududlarni faqat yakuniy ko'rsatkich bo'yicha emas, balki boshlang'ich daraja va muayyan davrdagi o'zgarish sur'ati asosida ham baholash zarurligini ko'rsatadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi ko'rsatkichlari alohida e'tiborga loyiq. Ushbu hududda kambag'allik darajasi 2023-yildagi 13,6 foizdan 2024-yilda 10,8 foizga, 2025-yilda esa 6,6 foizgacha pasaygan. Jahon bankining 2023-yilgi Iqlim va taraqqiyot hisobotida ham 2022-yil holatiga ko'ra Qoraqalpog'iston Respublikasi Xorazm va Sirdaryo viloyatlari qatorida kambag'allik darajasi eng yuqori bo'lgan hududlar orasida ko'rsatilgan edi, bu esa mazkur tadqiqotdagi boshlang'ich ko'rsatkichni mustaqil xalqaro manba bilan tasdiqlaydi [36]. Uch yillik davrda jami 7 foiz punktlilik qisqarish qayd etilgan bo'lib, bu respublika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichning shu davrdagi pasayishidan — 11,0 foizdan 5,8 foizgacha, ya'ni 5,2 foiz punktdan — sezilarli darajada yuqori. Pasayish sur'ati yildan yilga tezlashgani ham diqqatga sazovor: 2023–2024-yillarda 2,8 foiz punktni tashkil etgan bo'lsa, 2024–2025-yillarda 4,2 foiz punktga yetgan. Shu bilan birga, Qoraqalpog'istonda kambag'allik darajasi 2025-yilda ham respublika o'rtacha ko'rsatkichidan (5,8 foiz) 0,8 foiz punktga yuqoriligicha qolmoqda. Ya'ni hududda sezilarli ijobiy dinamika kuzatilgan bo'lsa-da, boshlang'ich darajaning yuqoriligi sababli respublika o'rtachasi bilan tafovut to'liq bartaraf etilmagan. Bu holat Qoraqalpog'iston misolida islohotlarning navbatdagi bosqichida ham manzilli qo'llab-quvvatlashni davom ettirish zarurligini ko'rsatadi.

Kambag'allikning qisqarishi qishloq va shaharlarda ham kuzatilgan. Qishloq joylarda bu ko'rsatkich 9,2 foizdan 6,4 foizgacha, shaharlarda esa 8,6 foizdan 5,2 foizgacha kamaygan<sup>33</sup>. Ya'ni pasayish qishloqlarda 2,8 foiz punktni, shaharlarda esa 3,4 foiz punktni tashkil etgan. Shunga qaramay, qishloq joylarda kambag'allik darajasi shaharlarga nisbatan yuqoriligicha qolmoqda. Bu tafovut qishloq va shaharlardagi bandlik imkoniyatlari, iqtisodiy faoliyat tarkibi hamda aholi daromad manbalaridagi farqlarni chuqurroq o'rganishni talab etadi.

Bandlik tarkibidagi yana bir muhim jihat — norasmiy sektorning yuqori ulushi. Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish instituti ma'lumotlariga ko'ra, 2026-yil holatiga mamlakat aholisining 48 foizi norasmiy sektorda band bo'lib, bu holat ijtimoiy sug'urta bazasini va byudjet daromadlarini cheklamoqda.<sup>34</sup>

Umumiy ko'rsatkichlar sezilarli darajada pasaygan bo'lsa-da, taxminan 2,2 million kishi hamon kambag'allik chegarasidan past daromadga ega<sup>35</sup>. Masalaning keyingi bosqichida kambag'allik darajasining pasayishi bilan birga, muammo qaysi hududlarda ko'proq saqlanib qolayotgani, qishloq va shahar o'rtasidagi tafovutning sabablari hamda yuqori natija qayd etgan hududlarda qo'llanilgan iqtisodiy va boshqaruv yondashuvlarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

31 O'zbekistonda 2025-yilda kambag'allik darajasi 5,8 foizgacha tushdi [Elektron resurs] // Zamin.uz. – 2025. – 30 dek. – URL: <https://zamin.uz/uzbekiston/179605>.

32 Xorazmda 81 ming aholini kambag'allikdan chiqarish va 39 ming ishsizni ishga joylashtirish rejalashtirilmoqda [Elektron resurs] // Spot.uz. – 2026. – 21 avgust. – URL: <https://www.spot.uz/oz/2026/08/21/khorezm>.


33 O'zbekistonda 2025-yilda kambag'allik darajasi 5,8 foizgacha tushdi [Elektron resurs] // Zamin.uz. – 2025. – 30 dek. – URL: <https://zamin.uz/uzbekiston/179605>.

34 O'zbekistonda aholining 48%i norasmiy sektorda ishlamoqda [Elektron resurs] // Spot.uz. – 2026. – 3 avgust. – URL: <https://www.spot.uz/oz/2026/08/03/informal-work>.

35 O'zbekistonda 2025-yilda kambag'allik darajasi 5,8 foizgacha tushdi [Elektron resurs] // Zamin.uz. – 2025. – 30 dek. – URL: <https://zamin.uz/uzbekiston/179605>.



2-diagramma. Ayrim hududlarda kambag'allik darajasining 2024–2025-yillardagi o'zgarishi (%)



**Manba:** Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi hamda Milliy statistika qo'mitasining hududlar kesimidagi ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzilgan [1; 28]<sup>36</sup>.

Kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini oshirish borasidagi ishlar muayyan normativ-huquqiy asosda olib borilmoqda. Prezidentning 2024-yil 23-sentyabrdagi «Kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to'g'risida»gi PF-143-son Farmoni hamda 2024-yil 4-oktyabrdagi PQ-347-son qaroriga ko'ra, vazirlik va idoralarga kambag'allikni qisqartirish bo'yicha sohasiy yo'l xaritalarini tasdiqlash hamda erishilgan natijalar yuzasidan har oyda Prezident Administratsiyasiga axborot taqdim etish vazifasi yuklatilgan<sup>37</sup>. Belgilangan vazifalar ijrosini aniq ko'rsatkichlar asosida muntazam kuzatib borish tizimi yo'lga qo'yilgan.

2025-yil 17-yanvardagi PQ-12-son qarorga muvofiq amalga oshirilgan «Mahalla loyihasi» ushbu siyosatning hududlarda qo'llanilayotgan amaliy mexanizmlaridan biridir. Dastur doirasida har bir mahallada o'rtacha 40 tadan, jami 377,6 mingta mikroloyihani amalga oshirish va shu hisobdan 755 ming nafar aholini ish bilan ta'minlash rejalashtirilgan<sup>38</sup>. Shuningdek, 2025-yilda aholini daromadli mehnat bilan ta'minlash dasturi doirasida 5,2 million kishini ish bilan band qilish uchun 126 trillion so'm yo'naltirilishi belgilangan<sup>39</sup>. Bu raqamlar kambag'allikni qisqartirish siyosatida bandlikni ta'minlash, mikroloyihalarni amalga oshirish va mahalla darajasida yangi daromad manbalarini yaratish o'zaro bog'liq yo'nalishlar ekanini ko'rsatadi. 2026-yilda esa har bir mahallada yana 40 tadan mikroloyihani amalga oshirish orqali 360 ming kishini ish bilan ta'minlash, shu maqsadda mahalla bankirlari va hokim yordamchilariga qo'shimcha 7,5 trillion so'm resurs ajratish rejalashtirilgan<sup>40</sup>.

Ushbu mexanizmning hududlardagi natijalarini Surxondaryo viloyatining Uzun va Denov tumanlari misolida qiyoslash mumkin. Prezident tomonidan namunaviy hudud sifatida alohida qayd etilgan Uzun tumanida aholi bandligi va rivojlanish loyihalari uchun 160 milliard so'm ajratilgan. Tumanga 70 million dollar xorijiy investitsiya jalb qilingan, 47 ta korxona ochilgan va 2000 dan ortiq mikroloyiha amalga oshirilgan<sup>41</sup>. Ajratilgan mablag'lar

36 O'zbekistonda 2025-yilda kambag'allik darajasi 5,8 foizgacha tushdi [Elektron resurs] // Zamin.uz. – 2025. – 30 dek. – URL: <https://zamin.uz/uzbekiston/179605>.

37 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-oktabrdagi PQ-347-son qarori. Kambag'allikni qisqartirish va bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida [Elektron resurs] // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – 2024. – 4 okt. – URL: <https://lex.uz/docs/7131782>.

38 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-yanvardagi PQ-12-son qarori. 2025-yilda aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida [Elektron resurs] // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – 2025. – 17 yanv. – URL: <https://lex.uz/docs/7327821>.

39 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-yanvardagi PQ-12-son qarori. 2025-yilda aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida [Elektron resurs] // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – 2025. – 17 yanv. – URL: <https://lex.uz/docs/7327821>.

40 2026-yili har bir mahallada 40 tadan mikroloyiha amalga oshirilib, 360 ming aholi ishli qilinadi [Elektron resurs] // Spot.uz. – 2025. – 26 dek. – URL: <https://www.spot.uz/oz/2025/12/26/projects-neighborhood>.

41 O'zbekistonda kambag'allik va ihsizlik darajasi 2026-yilda 4,5 foizdan pasaytirilishi rejalashtirilmoqda [Elektron resurs] // Onews.



bilan bir qatorda investitsiyalarning jalb qilingani, yangi korxonalarning tashkil etilgani va mikroloyihalarning amalga oshirilgani tumandagi iqtisodiy faollikning amaliy natijalarini ifodalaydi.

Denov tumanida esa boshqa holat qayd etilgan. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, tumanga Uzun tumaniga nisbatan taxminan 4,5 barobar ko'p mablag' ajratilgan. Tuman hokimligi tegishli ishlarni davom ettirmagani oqibatida kam ta'minlanganlar ro'yxatidagi 1200 oilaning daromadi o'zgarmay qolgan (3-jadval)<sup>42</sup>. Bu holat moliyaviy imkoniyatning kattaligi o'z-o'zidan yuqori natijani ta'minlamasligini ko'rsatadi.

Ikki tuman natijalari qiyoslanganda, farq yanada aniq ko'rinadi. Uzun tumanida 160 milliard so'm mablag' bilan bir qatorda 70 million dollar xorijiy investitsiya jalb qilingan, 47 ta korxona ochilgan va 2000 dan ortiq mikroloyiha amalga oshirilgan. Denovda moliyaviy resurslar hajmi yuqoriroq bo'lsa-da, kam ta'minlanganlar ro'yxatidagi 1200 oilaning daromadi o'zgarmagan. Hududiy rivojlanishda mablag' hajmi bilan bir qatorda uni aniq loyiha, korxona, ish o'rni va daromad manbaiga aylantirish jarayoni ham muhim.

Mazkur qiyos mahalliy boshqaruvning o'rnini ham ko'rsatadi. Moliyaviy resurs hududiy rivojlanishning muhim shartlaridan biri bo'lsa, uning amaliy natijasi mablag'ning qanday boshqarilishi, loyihalarning qay darajada amalga oshirilishi va ijroning qanday tashkil etilishiga bog'liq. Uzun tumanida investitsiya jalb qilish, korxonalar ochish va mikroloyihalarni amalga oshirish bo'yicha aniq natijalar qayd etilgan. Denovdagi holat esa resursning o'zi kutilgan natijani ta'minlamasligini ko'rsatadi. Mahalliy rahbariyatning mas'uliyati, tashabbuskorligi va ijro intizomi moliyaviy imkoniyatlarni amaliy natijaga aylantiruvchi omillar qatoriga kiradi.

Uzun va Denov misolidan umumiy xulosa chiqarishda mavjud ma'lumotlarning cheklanganligini ham hisobga olish zarur. Birinchidan, mablag'lar mutlaq miqdorda keltirilgan va hududlarning aholi soni yoki kam ta'minlangan oilalar soniga nisbatan hisoblanmagan. Denov aholisi Uzun tumanidan sezilarli darajada ko'p bo'lgani sababli jon boshiga to'g'ri keladigan mablag'lar o'rtasidagi tafovut 4,5 barobardan ancha kam bo'lishi mumkin.

Ikkinchidan, ikki tuman bo'yicha mavjud ma'lumotlar bir xil ko'rsatkichlarni qamrab olmaydi. Uzun tumani bo'yicha 70 million dollar xorijiy investitsiya, 47 ta korxona va 2000 dan ortiq mikroloyiha kabi bir nechta natijaviy ko'rsatkich keltirilgan. Denov bo'yicha esa rasmiy manbada asosan bitta natija — 1200 oilaning daromadi o'zgarmagani qayd etilgan (3-jadval). Shu sababli ikki tumanni barcha ko'rsatkichlar bo'yicha teng asosda qiyoslash uchun mavjud ma'lumotlar yetarli emas.

Uchinchidan, ma'lumotlar statistik to'plamdan emas, videoselektor yig'ilishi materiallaridan olingan. Uzun va Denov tumanlari maxsus ilmiy tanlanma asosida emas, yig'ilish kun tartibidan kelib chiqib tanlangan. Shu bois mazkur keys mahalliy boshqaruv sifati bilan natija o'rtasidagi sababiy bog'liqlikni to'liq isbotlamaydi. U ikki hududda kuzatilgan farqni aks ettiruvchi amaliy misol bo'lib, aniqlangan bog'liqlikni kengroq hududlar doirasida bir xil mezonlar asosida tekshirish zarur.

3-jadval  
Uzun va Denov tumanlari tajribasining qiyosiy tahlili

| Ko'rsatkich                                  | Uzun tumani (namunaviy)       | Denov tumani (qiyos uchun)               |
|----------------------------------------------|-------------------------------|------------------------------------------|
| Ajratilgan byudjet mablag'i                  | 160 mlrd so'm                 | Uzunga nisbatan ~4,5 barobar ko'p        |
| Jalb qilingan xorijiy investitsiya           | 70 mln AQSh dollari           | Rasmiy ma'lumotda alohida ko'rsatilmagan |
| Ochilgan korxonalar soni                     | 47 ta                         | Sezilarli o'zgarish qayd etilmagan       |
| Amalga oshirilgan mikroloyihalar             | 2000 tadan ortiq              | Rasmiy ma'lumotda alohida ko'rsatilmagan |
| Kam ta'minlangan oilalar daromadi dinamikasi | Ijroiy o'zgarish qayd etilgan | 1200 oilaning daromadi o'zgarmagan       |

**Manba:** Prezidentning 2025-yil 19-noyabrdagi videoselektor yig'ilishi materiallari asosida (Onews.uz, 24.11.2025) muallif tomonidan tuzilgan.<sup>43</sup>

Hududiy boshqaruvda 2026-yildan yangi moliyaviy mexanizmlar joriy etilmoqda. Prezidentning Murojaatnomasida belgilanganidek, 2026-yil 1-yanvardan qo'shilgan qiymat solig'i tushumining 5 foizi Toshkent shahrida, qolgan hududlarda esa 20 foizi tuman byudjetlarida qoldiriladi<sup>44</sup>. Shuningdek, tuman hokimlariga

uz. – 2025. – 24 noyabr. – URL: <https://onews.uz/yangiliklar/ishsizlik-pasaytirilishi-2026/>.

42 O'zbekistonda kambag'allik va ishsizlik darajasi 2026-yilda 4,5 foizdan pasaytirilishi rejalashtirilmoqda [Elektron resurs] // Onews.

uz. – 2025. – 24 noyabr. – URL: <https://onews.uz/yangiliklar/ishsizlik-pasaytirilishi-2026/>.

43 O'zbekistonda kambag'allik va ishsizlik darajasi 2026-yilda 4,5 foizdan pasaytirilishi rejalashtirilmoqda [Elektron resurs] // Onews. uz. – 2025. – 24 noyabr. – URL: <https://onews.uz/yangiliklar/ishsizlik-pasaytirilishi-2026/>.

44 Mirziyoyev Sh. M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi, 2025-yil 26-dekabr



samarasiz shtat birliklarini qisqartirish hisobidan tejalgan mablag'larni mahalla ehtiyojlariga yo'naltirish huquqi beriladi. Hisob-kitoblarga ko'ra, ushbu o'zgarishlar natijasida tumanlar byudjetida yiliga qo'shimcha 5 trillion so'mlik manba shakllanadi<sup>45</sup>. Natijada tumanlarning moliyaviy imkoniyatlari kengayib, mablag'larni joylardagi aniq ehtiyojlardan kelib chiqib taqsimlash vakolati ham ortadi.

Mahalla infratuzilmasini rivojlantirishga ajratilayotgan mablag'lar ko'lami ham kengaymoqda. 2026-yilda ushbu yo'nalish uchun bevosita viloyatlarga 20 trillion so'm ajratilishi rejalashtirilgan. Shundan 8,5 trillion so'mi 33 ta tanlangan tuman va 330 ta «og'ir» mahallaga yo'naltiriladi<sup>46</sup>. Bu yondashuv mablag'larni barcha hududlarga bir xil taqsimlashdan ko'ra, mavjud muammolar ko'lami va hududlarning rivojlanish sharoitlarini hisobga olgan holda taqsimlashga asoslangan.

Hududlarda iqtisodiy faollikni oshirishning yana bir yo'nalishi — tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash. 2026-yilda kichik va o'rta biznesni rivojlantirish uchun 140 trillion so'm resurs ajratilishi, shundan 43 trillion so'mi xotin-qizlar va yoshlar tadbirkorligiga yo'naltirilishi ko'zda tutilgan<sup>47</sup>. «Mahallada sanoat va xizmat» loyihasi doirasida 10 mingdan ziyod loyihani ishga tushirish va ular hisobiga 100 mingta yangi ish o'rni yaratish rejalashtirilgan<sup>48</sup>. Bu yerda asosiy masala ajratilgan mablag' hajmi bilangina cheklanmaydi. **Mablag'larning yangi korxonalar, xizmat turlari, ish o'rinlari va barqaror daromad manbalarini yaratishga yo'naltirilishi yakuniy natijani belgilovchi muhim mezondir.**

Yirik investitsiya loyihalarida ham hududlarning ishlab chiqarish va infratuzilma salohiyatini kengaytirishga katta e'tibor qaratilgan. 2026-yilda respublika bo'yicha umumiy qiymati 52 milliard dollar bo'lgan 782 ta yangi sanoat va infratuzilma loyihasini amalga oshirish ko'zda tutilgan. Shundan umumiy qiymati 14 milliard dollar bo'lgan 228 ta loyihani yirik ishlab chiqarish quvvatlari sifatida ishga tushirish rejalashtirilgan<sup>49</sup>. Ushbu raqamlar hududlarda ishlab chiqarishni kengaytirish, yangi korxonalar tashkil etish va qo'shimcha ish o'rinlari yaratish uchun katta hajmdagi investitsiya resurslari yo'naltirilayotganini ko'rsatadi. 2026-yil birinchi yarim yilligi yakunlariga ko'ra, mamlakat YAIM 8,5 foizga o'sib (sanoat — 8, xizmat ko'rsatish sohasi — 16,9, qurilish — 13,8, qishloq xo'jaligi — 4,7 foizga), shu davrda 28 milliard dollarlik investitsiya jalb qilingan va 14,4 milliard dollarlik eksport amalga oshirilgan.<sup>50</sup> Shu davrda mamlakat yalpi ichki mahsuloti tarixda birinchi marta 1 kvadrillion so'm chegarasidan oshib, 1,073 kvadrillion so'mni, aholi jon boshiga YIM esa 27,95 million so'mni (real hisobda 6,6 foizga oshib) tashkil etdi.<sup>51</sup> Aholi umumiy daromdlari esa yilning birinchi yarmida 9,2 foizga oshib, 618,3 trillion so'mni tashkil etgan<sup>52</sup>. Bu ko'rsatkichlar yil boshida belgilangan yirik investitsiya rejalarining amalda qanday bajarilayotganini aks ettiradi.

Hududiy moliyalashtirish tizimida ikki muhim yo'nalish ko'zga tashlanadi. Birinchisi — mahalla infratuzilmasiga 20 trillion so'm, kichik va o'rta biznesga 140 trillion so'm hamda sanoat va infratuzilma loyihalariga 52 milliard dollar miqdorida yirik resurslarning yo'naltirilishidir. Ikkinchisi — qo'shilgan qiymat solig'i tushumining bir qismini tumanlarda qoldirish orqali mahalliy byudjetlarning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirishdir. Uzun va Denov tumanlari qiyosi resurs miqdori bilan bir qatorda, uni investitsiya, korxona, ish o'rni va aholi daromadiga aylantirish jarayoni ham muhim ekanini ko'rsatdi.

Mahalliy boshqaruvni natijalar asosida baholash bo'yicha ham yangi tizim joriy etilmoqda. Prezidentning 2025-yil 21-oktyabrdagi «Hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun tuman (shahar) hokimliklari faoliyatini tubdan takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-186-son Farmoniga muvofiq, 2026-yil 1-yanvardan «Yangi O'zbekiston qiyofasidagi tuman (shahar)» maqomidagi 33 ta hokimlik

[Elektron resurs] // Dunyo.info. — 2025. — 26 dek. — URL: <https://dunyo.info/uzk/news/vystuplenie-prezidenta-uzbekistana-shavkata-mirziyoeva-na-zasedanii-1>.

45 Mirziyoyev Sh. M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi, 2025-yil 26-dekabr [Elektron resurs] // Dunyo.info. — 2025. — 26 dek. — URL: <https://dunyo.info/uzk/news/vystuplenie-prezidenta-uzbekistana-shavkata-mirziyoeva-na-zasedanii-1>.

46 Mirziyoyev Sh. M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi, 2025-yil 26-dekabr [Elektron resurs] // Dunyo.info. — 2025. — 26 dek. — URL: <https://dunyo.info/uzk/news/vystuplenie-prezidenta-uzbekistana-shavkata-mirziyoeva-na-zasedanii-1>.

47 Mirziyoyev Sh. M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi, 2025-yil 26-dekabr [Elektron resurs] // Dunyo.info. — 2025. — 26 dek. — URL: <https://dunyo.info/uzk/news/vystuplenie-prezidenta-uzbekistana-shavkata-mirziyoeva-na-zasedanii-1>.

48 Mirziyoyev Sh. M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi [Elektron resurs] // Dunyo.info. — 2025. — 26 dek. — URL: <https://dunyo.info/uzk/news/vystuplenie-prezidenta-uzbekistana-shavkata-mirziyoeva-na-zasedanii-1>.

49 Mirziyoyev Sh. M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi [Elektron resurs] // Dunyo.info. — 2025. — 26 dek. — URL: [Dunyo.info](https://dunyo.info).

50 Aholi hayotini yaxshilash uchun 9–10% li iqtisodiy o'sish zarur — Mirziyoyev [Elektron resurs] // Spot.uz. — 2026. — 21 iyul. — URL: <https://www.spot.uz/uz/2026/07/21/economic-growth>.

51 O'zbekiston iqtisodiyoti 8,5% ga o'sdi, YIM hajmi 1 kvadrillion so'mdan oshdi [Elektron resurs] // Spot.uz. — 2026. — 6 avgust. — URL: <https://www.spot.uz/uz/2026/08/06/economic-growth>.

52 O'zbekistonda aholi daromdlari yarim yilda 9,2 foizga o'sdi [Elektron resurs] // Daryo.uz. — 2026. — 30 iyul. — URL: <https://daryo.uz/2026/07/30/ozbekistonda-aholi-daromadlari-yarim-yilda-92-foizga-osdi/>.





hamda Surxondaryo viloyati hokimliklarida natijaga asoslangan boshqaruv tizimi tajriba-sinov tariqasida joriy etilmoqda<sup>53</sup>. Yangi yondashuvda hokimlik faoliyati o'tkazilgan tadbirlar yoki sarflangan mablag'lar bilan emas, balki erishilgan aniq ijtimoiy-iqtisodiy natijalar asosida baholanadi.

Boshqaruv samaradorligi agentligiga tajriba-sinov natijalarini muntazam o'rganish, aniqlangan holatlar asosida tizimni takomillashtirish hamda samarali mexanizmlar bo'yicha Prezident Administratsiyasiga takliflar kiritish vazifasi yuklatilgan. Agentlik Adliya vazirligi bilan birgalikda hokimlar va ularning o'rinbosarlari rahbarlik qilayotgan komissiyalar faoliyatini ham tahlil qiladi. Tahlil natijalariga ko'ra, samarasiz komissiyalarni tugatish yoki ularning vazifalarini boshqa davlat organlariga o'tkazish bo'yicha takliflar ishlab chiqilishi belgilangan<sup>54</sup>. Ya'ni natijadorlik talabi faqat hududiy dasturlarga emas, balki boshqaruv tizimining o'ziga ham tatbiq etilmoqda.

O'tkazilgan tahlil hududiy islohotlar natijasiga bir vaqtning o'zida bir nechta omil ta'sir etayotganini ko'rsatadi. Birinchi omil — resurslarning manzilliligi. Buxoro va Qoraqalpog'istonda boshlang'ich kambag'allik darajasi respublika o'rtachasidan yuqori bo'lsa-da, pasayish sur'ati ham o'rtachadan tez kechgan (2-jadval). Qoraqalpog'iston misolida bu tendensiya uch yil davomida saqlangan: 2023–2024-yillarda 2,8 foiz punkt, 2024–2025-yillarda esa 4,2 foiz punktki pasayish qayd etilgan. Namangan va Samarqandda esa boshlang'ich ko'rsatkich nisbatan past bo'lishiga qaramay, yuqori pasayish sur'ati qayd etilgan. Demak, mavjud raqamlarning o'zi «kambag'allik qayerda yuqori bo'lsa, pasayish ham o'sha yerda tezroq kechadi», degan xulosani tasdiqlamaydi. Buni aniq baholash uchun aholi jon boshiga yoki kam ta'minlangan bir oilaga qancha mablag' yo'naltirilganini ko'rsatuvchi ma'lumotlar zarur. Ushbu ko'rsatkichlar hududlar kesimida e'lon qilinmagani sababli resurslarning manzillilik darajasi miqdoriy jihatdan baholanmadi.

Ikkinchi omil — mahalliy boshqaruvning amaliy faolligi va mas'uliyati. Uzun va Denov tumanlari qiyosi moliyaviy resurslar hajmi bilan erishilgan natija o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri mutanosiblik kuzatilmaganini ko'rsatadi. Uzun tumanida ajratilgan mablag'lar investitsiyalarni jalb qilish, korxonalar ochish va mikroloyihalarni amalga oshirish bilan birga kechgan. Denovda esa kattaroq moliyaviy imkoniyat mavjud bo'lishiga qaramay, kam ta'minlanganlar ro'yxatidagi 1200 oilaning daromadi o'zgarmagan<sup>55</sup>. Bu kuzatuv mablag'larni aniq loyihalarga yo'naltirish va ijroni tashkil etish sifati ham natijaga ta'sir etishiga ishora qiladi. Yuqorida qayd etilgan metodologik cheklovlar sababli ikki tuman misolining o'zi sababiy bog'liqlikni to'liq isbotlash uchun yetarli emas.

Uchinchi omil — byudjet-soliq mexanizmlarining hududlarning iqtisodiy manfaatlari bilan bog'lanishidir. Qo'shilgan qiymat solig'i tushumining 5 foizini Toshkent shahrida, qolgan hududlarda esa 20 foizini tuman byudjetlarida qoldirish mahalliy daromad bazasini kengaytiradi. Hududda ishlab chiqarish, savdo va xizmatlar hajmi ortgani sari mahalliy byudjet imkoniyatlari ham kengayadi. Natijada tumanlarning iqtisodiy faollikni oshirishdan moliyaviy manfaatdorligi kuchayadi.

Hududlarning boshlang'ich sharoiti ham natijalarni baholashda muhim ahamiyatga ega. Ularning iqtisodiy tuzilishi, aholi soni va zichligi, ishlab chiqarish salohiyati, infratuzilmasi hamda mehnat bozori imkoniyatlari bir-biridan farq qiladi. Shu sababli bir xil dastur yoki bir xil miqdordagi mablag' turli hududlarda turlicha natija berishi mumkin. Masalan, sanoat bazasi rivojlangan tuman bilan iqtisodiyoti asosan qishloq xo'jaligiga tayangan tumanning bir xil resursdan foydalanish imkoniyati teng emas. Hududning boshlang'ich sharoitini hisobga olmasdan, faqat yakuniy ko'rsatkichlarni qiyoslash natijani to'liq aks ettirmaydi.

Tahlil natijalari hududiy rivojlanishni faqat ajratilgan mablag' hajmi bilan izohlab bo'lmagligini ko'rsatadi. Resurslarning qayerga yo'naltirilgani, hududning iqtisodiy imkoniyatlari, investitsiya va tadbirkorlik faolligi, ijro intizomi hamda boshqaruv sifati yakuniy natijani birgalikda shakllantiradi. PF-186-son Farmon bilan joriy etilayotgan natijaga asoslangan boshqaruv tizimining asosiy jihati ham shunda: hudud faoliyatini sarflangan mablag' yoki bajarilgan tadbirlar soni bilan emas, balki aholi bandligi, daromadlar, kambag'allik darajasi va iqtisodiy faollikdagi real o'zgarishlar orqali baholashga ustuvorlik berilmoqda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlil O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini oshirish borasida sezilarli natijalarga erishilganini ko'rsatdi. 2024–2025-yillarda respublika bo'yicha kambag'allik darajasi 8,9 foizdan 5,8 foizgacha pasaygan<sup>56</sup>. Hududlar kesimidagi ma'lumotlar esa bu jarayon barcha joyda bir

53 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-oktabrdagi PF-186-son Farmoni. Hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun tuman (shahar) hokimliklari faoliyatini tubdan takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida [Elektron resurs] // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – 2025. – 21 okt. – URL: <https://lex.uz/docs/7783420>.

54 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-oktabrdagi PF-186-son Farmoni. Hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun tuman (shahar) hokimliklari faoliyatini tubdan takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida [Elektron resurs] // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – 2025. – 21 okt. – URL: [Lex.uz](https://lex.uz).

55 O'zbekistonda kambag'allik va ishsizlik darajasi 2026-yilda 4,5 foizdan pasaytirilishi rejalashtirilmoqda [Elektron resurs] // Onews.uz. – 2025. – 24 noyabr. – URL: <https://onews.uz/yangiliklar/ishsizlik-pasaytirilishi-2026/>.

56 O'zbekistonda 2025-yilda kambag'allik darajasi 5,8 foizgacha tushdi [Elektron resurs] // Zamin.uz. – 2025. – 30 dek. – URL: [Zamin.uz](https://zamin.uz).



xil sur'atda kechmayotganini ko'rsatadi. Jumladan, shu davrda Jizzax viloyatida kambag'allik darajasi 6 foiz punktga, Xorazmda 5,2, Sirdaryoda 5,1, Qoraqalpog'iston Respublikasida 4,2 va Toshkent shahrida 3,8 foiz punktga kamaygan. Qoraqalpog'iston bo'yicha uzluksiz uch yillik ma'lumotlar mavjud bo'lib, ular kambag'allik darajasi 2023-yildagi 13,6 foizdan 2025-yilda 6,6 foizgacha qisqarganini, biroq respublika o'rtacha ko'rsatkichidan yuqoriligicha qolayotganini ko'rsatadi. Hududlarning iqtisodiy tuzilishi, ishlab chiqarish salohiyati, bandlik imkoniyatlari, infratuzilma darajasi va mahalliy boshqaruv sifati natijalar o'rtasidagi farqlarga ta'sir etmoqda.

«Mahalla loyihasi» va «Aholini daromadli mehnat bilan ta'minlash» dasturlari hududlarda bandlikni oshirish va aholi uchun yangi daromad manbalarini yaratishning asosiy amaliy mexanizmlaridan biriga aylandi<sup>57</sup>. «Mahalla loyihasi» doirasida har bir mahallada o'rtacha 40 tadan, jami 377,6 mingta mikroloyihani amalga oshirish hisobiga 755 ming nafar aholini ish bilan ta'minlash rejalashtirilgan. Shuningdek, 2025-yilda 5,2 million kishini daromadli mehnat bilan ta'minlash uchun 126 trillion so'm yo'naltirilishi belgilangan. Bu yerda asosiy mezon ajratilgan mablag' yoki loyihalar sonigina emas, balki ularning barqaror ish o'rinlari va aholi daromadiga aylanishidir.

Uzun va Denov tumanlari qiyosi masalaning amaliy jihatini yanada aniqroq ko'rsatadi. Uzun tumanida aholi bandligi va rivojlanish loyihalariga 160 milliard so'm ajratilgan, 70 million dollar xorijiy investitsiya jalb qilingan, 47 ta korxona ochilgan va 2000 dan ortiq mikroloyiha amalga oshirilgan<sup>58</sup>. Denov tumaniga Uzun tumaniga nisbatan taxminan 4,5 barobar ko'p mablag' ajratilganiga qaramay, kam ta'minlanganlar ro'yxatidagi 1200 ta oilaning daromadi o'zgarmay qolgan<sup>59</sup>. Bu holat moliyaviy resurs miqdorining o'zi yuqori natijani ta'minlamasligiga ishora qiladi.

Mazkur qiyosni talqin qilishda mavjud ma'lumotlarning cheklanganligini ham hisobga olish zarur. Ajratilgan mablag'lar aholi soniga nisbatan hisoblanmagan, Denov bo'yicha rasmiy manbada esa faqat bitta natijaviy ko'rsatkich keltirilgan. Shu sababli ikki tuman misolida kuzatilgan natijani qat'iy qonuniyat sifatida emas, balki kengroq hududlar doirasida tekshirilishi zarur bo'lgan ilmiy faraz sifatida baholash maqsadga muvofiq.

Tahlil natijalariga ko'ra, hududiy dasturlarni shakllantirishda barcha viloyat va tumanlarga bir xil yondashuvni qo'llashdan ko'ra, ularning iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatlarini hisobga olish zarur. Ayniqsa, kambag'allik darajasi respublika o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori bo'lgan hududlarda — jumladan, 2025-yilda 6,6 foiz ko'rsatkich qayd etilgan Qoraqalpog'iston Respublikasida — moliyaviy resurslar bilan bir qatorda boshqaruv va metodik ko'makni kuchaytirish muhim. Respublikada taxminan 2,2 million kishi hamon kambag'allik chegarasidan past daromadga ega ekani muammoning qaysi hududlarda ko'proq saqlanib qolayotganini aniqlash zarurligini ko'rsatadi.

«Mahalla loyihasi» doirasidagi mikroloyihalarni baholashda ularning soni bilan cheklanib qolmaslik kerak. Yaratilgan ish o'rinlarining qancha muddat saqlanib qolgani, oilalar daromadi qanday o'zgargani va loyihalarning iqtisodiy faoliyati davom etayotgani ham muntazam kuzatib borilishi zarur. Shunda qaysi mikroloyiha real iqtisodiy natija bergani, qaysi biri esa faqat dastlabki statistik ko'rsatkich sifatida qolib ketgani aniq ko'rinadi.

Mahalliy boshqaruv faoliyatini baholashda ham natijaviy ko'rsatkichlarga ustuvorlik berish lozim. Tuman va shahar hokimliklari faoliyatini faqat o'zlashtirilgan mablag', o'tkazilgan tadbir yoki ishga tushirilgan loyihalar soni bilan o'lchash yetarli emas. Yaratilgan barqaror ish o'rinlari, jalb qilingan investitsiyalar, aholi daromadlarining o'sishi va kambag'allik darajasidagi real o'zgarishlar hudud rahbariyati faoliyatini baholashning asosiy mezonlari bo'lishi kerak.

Hududiy dasturlarni ishlab chiqishda ma'lumotlarning aniqligi va ochiqligi alohida ahamiyatga ega. Respublika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich hududlardagi real vaziyatni har doim ham to'liq aks ettirmaydi. Shu bois kambag'allik, bandlik, ajratilgan mablag'lar, investitsiyalar va yaratilgan ish o'rinlari haqidagi ma'lumotlarni viloyat, tuman va imkon qadar mahalla kesimida shakllantirish zarur. Bu hududlarning boshlang'ich sharoitini to'g'ri baholash, natijalarni o'zaro qiyoslash va resurslarni aniq ehtiyojlarga qarab taqsimlash uchun asos bo'ladi.

Tadqiqot davomida hududiy islohotlarni qiyosiy baholash uchun zarur ma'lumotlarning to'liq va bir xil shaklda e'lon qilinmasligi asosiy cheklovlardan biri sifatida aniqlandi. Ayrim viloyatlarning oldingi yil ko'rsatkichlari mavjud emas, ajratilgan mablag'larning aholi jon boshiga yoki kam ta'minlangan bir oilaga to'g'ri keladigan miqdori ochiqdanmagan, mikroloyihalarning keyingi faoliyati haqida ham yaxlit ma'lumotlar yetarli

57 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-yanvardagi PQ-12-son qarori. 2025-yilda aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida [Elektron resurs] // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – 2025. – 17 yanv. – URL: [Lex.uz](https://lex.uz).

58 O'zbekistonda kambag'allik va ishsizlik darajasi 2026-yilda 4,5 foizdan pasaytirilishi rejalashtirilmoqda [Elektron resurs] // Onews.uz. – 2025. – 24 noyabr. – URL: <https://onews.uz/yangiliklar/ishsizlik-pasaytirilishi-2026/>.

59 O'zbekistonda kambag'allik va ishsizlik darajasi 2026-yilda 4,5 foizdan pasaytirilishi rejalashtirilmoqda [Elektron resurs] // Onews.uz. – 2025. – 24 noyabr. – URL: <https://onews.uz/yangiliklar/ishsizlik-pasaytirilishi-2026/>.



emas. Namunaviy deb ko'rsatilgan hududlarda aynan qaysi boshqaruv mexanizmlari yuqori natija bergani ham to'liq hujjatlashtirilmagan.

Shu bois viloyat va tumanlar kesimida kambag'allik darajasi, ajratilgan mablag'lar, investitsiyalar, yaratilgan ish o'rinlari, mikroloiyahalar va aholi daromadlaridagi o'zgarishlarni yagona mezonlar asosida jamlaydigan ochiq ma'lumotlar bazasini shakllantirish zarur. Namunaviy hududlar tajribasini yoritishda esa uni shunchaki «muvaffaqiyatli tajriba» sifatida qayd etishdan ko'ra, qaysi boshqaruv qarori, qancha resurs va qanday iqtisodiy mexanizm hisobiga muayyan natijaga erishilganini aniq ko'rsatish muhim.

Umuman, tahlil hududiy islohotlar natijasini uchta asosiy omil — resurslarning manzilli taqsimlanishi, mahalliy boshqaruv sifati va hududning iqtisodiy sharoiti — birgalikda shakllantirishini ko'rsatdi. Demak, asosiy masala hududga qancha mablag' ajratilganida emas, balki ushbu mablag'ning qayerga yo'naltirilgani, qanday boshqarilgani hamda aholi bandligi va daromadlarida qanday real o'zgarishlarga olib kelganidadir. «O'zbekiston – 2030» strategiyasida belgilangan maqsadlarga erishishda hududiy siyosat natijalarini aynan shu mezonlar asosida baholash muhim ahamiyatga ega.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekistonda 2025-yilda kambag'allik darajasi 5,8 foizgacha tushdi [Elektron resurs] // Zamin.uz. – 2025. – 30 dek. – URL: <https://zamin.uz/uzbekiston/179605>.
2. O'zbekistonda 2024-yilda kambag'allik darajasi 8,9 foizga qisqardi [Elektron resurs] // Gazeta.uz. – 2025. – 3 fevr. – URL: <https://www.gazeta.uz/uz/2025/02/03/poverty/>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-yanvardagi PQ-12-son qarori. 2025-yilda aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida [Elektron resurs] // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/7327821>.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi PF-143-son Farmoni. Kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to'g'risida [Elektron resurs] // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/7109857>.
5. O'zbekistonda kambag'allik va ishsizlik darajasi 2026-yilda 4,5 foizdan pasaytirilishi rejalashtirilmoqda [Elektron resurs] // Onews.uz. – 2025. – 24 noyabr. – URL: <https://onews.uz/yangiliklar/ishsizlik-pasaytirilishi-2026/>.
6. Mirziyoyev Sh. M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi [Elektron resurs] // Dunyo.info. – 2025. – 26 dek. – URL: <https://dunyo.info/uzk/news/vystuplenie-prezidenta-uzbekistana-shavkata-mirziyoeva-na-zasedanii-1> (murojaat sanasi: 21.07.2026).
7. O'zbekistonda 2026-yilda 782 loyiha boshlanadi [Elektron resurs] // Zamin.uz. – 2025. – 26 dek. – URL: <https://zamin.uz/uzbekiston/178710>.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-oktabrdagi PQ-347-son qarori. Kambag'allikni qisqartirish va bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida [Elektron resurs] // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/7131782>.
9. Pomfret R., Anderson K. Gradual Economic Reform and Well-Being in Uzbekistan // Poverty, Income Distribution and Well-Being in Asia During the Transition / ed. by A. Lu, M. F. Montes. – London : Palgrave Macmillan, 2002. – P. 187–214. – DOI: 10.1057/9780230503892\_8.
10. Pomfret R. The Central Asian Economies in the Twenty-First Century: Paving a New Silk Road. – Princeton, NJ : Princeton University Press, 2019. – 328 p.
11. Babaev S., Johnston T., Almeida P. Economic Growth and Poverty Reduction in Uzbekistan: Achievements and Challenges // International Journal of Advanced Research in Economics and Finance. – 2024. – Vol. 6, No. 4. – P. 16–26. – DOI: 10.55057/ijaref.2024.6.4.2.
12. Berkinov B. "Sayxunobod tajribasi" — mahallalarni inklyuziv rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy modeli [Elektron resurs] // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2025. – URL: <https://sci-p.uz/index.php/eitt/article/view/2463>.
13. Tashpulatov S. The Impact of Foreign Direct Investment on Regional Development in Uzbekistan // Eurasian Journal of Economic Research. – 2023. – Vol. 11, No. 1. – P. 45–61.
14. Ibrakhimova S. From Local Mahallas to a Global Strategy: Uzbekistan's Fight Against Poverty [Elektron resurs] // Euronews. – 2025. – 23 sent. – URL: <https://www.euronews.com/business/2025/09/23/from-local-mahallas-to-a-global-strategy-uzbekistans-fight-against-poverty>.
15. Hoshimov B. "Yagona samarali usul — iqtisodiyotning o'sishi". Behzod Hoshimov — kambag'allikni qisqartirish haqida [Elektron resurs] // Gazeta.uz. – 2025. – 20 sent. – URL: <https://www.gazeta.uz/oz/2025/09/20/poverty/>.
16. Mirziyoeva S. Sh. Analysis of Uzbekistan's Experience in Development of National and Regional Strategies // Upravlencheskoye konsultirovaniye. – 2019. – № 3. – P. 49–61. – DOI: 10.22394/1726-1139-2019-3-49-61.
17. Murodxo'jayeva F. M. Davlatning mintaqaviy siyosati va Namangan viloyati iqtisodiyotini rivojlantirishning ayrim masalalari // Iqtisodiyot va ta'lim. – 2017.
18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-oktabrdagi PF-186-son Farmoni. Hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun tuman (shahar) hokimliklari faoliyatini tubdan takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida [Elektron resurs] // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/7783420>.



19. Hududlarni ilmiy asosda rivojlantirishga kirishildi [Elektron resurs] // Yuz.uz. – 2020. – 7 dek. – URL: <https://yuz.uz/uz/news/hududlarni-ilmiy-asosda-rivojlantirishga-kirishildi>.
20. Jumayev N., Gadoyev E. Murojaatnoma: xalq farovonligi yo'lidagi aniq marralar [Elektron resurs] // Yuz.uz. – 2026. – 13 yan. – URL: <https://yuz.uz/uz/news/murojaatnoma-xalq-farovonligi-yolidagi-anik-marralar>.
21. Tursunov U. Kambag'allik inson kapitaliga qanday ta'sir qiladi? Ta'lim misolidagi tahlil [Elektron resurs] // Gazeta.uz. – 2026. – 1 iyun. – URL: <https://www.gazeta.uz/oz/2026/06/01/poverty-education/>.
22. O'zbekiston Respublikasida 2026-yilda o'tkazilgan aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishning dastlabki natijalari [Elektron resurs] // Milliy statistika qo'mitasi. – 2026. – 30 iyun. – URL: <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mitayangiliklar/68980-o-zbekiston-respublikasida-2026-yilda-o-tkazilgan-aholi-va-qishloq-xo-jaligini-ro-yxatga-olishning-dastlabki-natijalari>.
23. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-22-son Farmoni. "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish" yilida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlar dasturlari va "O'zbekiston — 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida [Elektron resurs] // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://www.lex.uz/uz/docs/-8050787>.
24. 2026-yilda kambag'allik darajasi 2,8 foizgacha va ishsizlik darajasi 4,5 foizgacha pasaytiriladi [Elektron resurs] // O'za.uz. – 2026. – 22 fevr. – URL: [https://uza.uz/en/posts/2026-yilda-kambag'allik-darajasi-28-foizgacha-va-ishsizlik-darajasi-45-foizgacha-pasaytiriladi\\_823228](https://uza.uz/en/posts/2026-yilda-kambag'allik-darajasi-28-foizgacha-va-ishsizlik-darajasi-45-foizgacha-pasaytiriladi_823228).
25. Aholi hayotini yaxshilash uchun 9–10% li iqtisodiy o'sish zarur — Mirziyoyev [Elektron resurs] // Spot.uz. – 2026. – 21 iyul. – URL: <https://www.spot.uz/oz/2026/07/21/economic-growth>.
26. O'zbekistonda aholi daromadlari yarim yilda 9,2 foizga o'sdi [Elektron resurs] // Daryo.uz. – 2026. – 30 iyul. – URL: <https://daryo.uz/2026/07/30/ozbekistonda-aholi-daromadlari-yarim-yilda-92-foizga-osdi/>.
27. 2026-yili har bir mahallada 40 tadan mikroloyiha amalga oshirilib, 360 ming aholi ishli qilinadi [Elektron resurs] // Spot.uz. – 2025. – 26 dek. – URL: <https://www.spot.uz/oz/2025/12/26/projects-neighborhood>.
28. O'zbekistonda 2025-yil yakuni bo'yicha kambag'allik darajasi va aholi daromadlari tahlili (hududlar kesimida) [Elektron resurs] // Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi; Dunyo.info. – 2026. – URL: <https://dunyo.info/uzk/ceir-predstavil-analiz-urovnya-bednosti-i-dohodov-naseleniya-v-uzbekistane>.
29. Lin J. Y., Yu J., Nomozov Sh. Uzbekistan before and after the 2016 socio-economic reforms // New Uzbekistan. – London : Routledge, 2024. – P. 1–24. – DOI: 10.4324/9781003473497-1. – URL: <https://www.taylorfrancis.com/chapters/edit/10.4324/9781003473497-1/uzbekistan-2016-socio-economic-reforms-justin-yifu-lin-jia-yu-shakhzod-nomozov>.
30. Izvorski I., Melecky M., Trushin E. [va boshq.]. Assessing Uzbekistan's Transition: Country Economic Memorandum. – Washington, DC : World Bank, 2021. – DOI: 10.1596/36655. – URL: <https://hdl.handle.net/10986/36655>.
31. Uzbekistan – Country Economic Memorandum: Fostering Private Sector-Led Growth and Global Integration [Elektron resurs]. – Washington, DC : World Bank, 2025. – 24 iyun. – URL: <https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/publication/cem-2025>.
32. Seitz W., Sharma D., Molini V., Honorati M., Novikova M., Purevjav A.-O., Muradova S. Setting a National Poverty Line in Uzbekistan [Elektron resurs] // World Bank Poverty and Equity Program for Central Asia. – Washington, DC : World Bank, 2021. – June. – URL: <https://documents1.worldbank.org/curated/en/099062824104113545/pdf/P1746031a5c36b0d197591155c3069e7ea.pdf>.
33. Moon J., Choi J. W., Kim K. H. Regional Disparities in Safe and Clean Environments in Uzbekistan: Analysis of 2021–2022 Uzbekistan Multiple Indicator Cluster Survey Data // Sustainability. – 2024. – Vol. 16, No. 4. – Art. 1580. – DOI: 10.3390/su16041580. – URL: <https://www.mdpi.com/2071-1050/16/4/1580>.
34. Mustafoev T. Uzbekistan takes steps towards establishing a welfare state and eradicating poverty: from 'Iron Feast' to 'Iron Notebooks' [Elektron resurs] // NORCA, Lund University. – 2025. – 10 yanv. – URL: <https://www.norca.lu.se/article/uzbekistan-takes-steps-towards-establishing-welfare-state-and-eradicating-poverty-iron-feast-iron>.
35. Kakhkharov J., Ahunov M., Parpiev Z., Wolfson I. South-South Migration: Remittances of Labour Migrants and Household Expenditures in Uzbekistan // International Migration. – 2021. – Vol. 59, No. 5. – P. 38–58. – DOI: 10.1111/imig.12792. – URL: <https://onlinelibrary.wiley.com/doi/10.1111/imig.12792>.
36. Country Climate and Development Report: Uzbekistan [Elektron resurs]. – Washington, DC : World Bank Group, 2023. – November. – URL: <https://documents1.worldbank.org/curated/en/099111423124532881/pdf/P1790680f452f10ba0a34c06922a1df0003.pdf>.
37. O'zbekistonda kambag'allik chegarasi 715 ming so'm bo'ldi [Elektron resurs] // Gazeta.uz. – 2026. – 5 mart. – URL: <https://www.gazeta.uz/oz/2026/03/05/poverty-line/>.
38. O'zbekiston iqtisodiyoti 8,5% ga o'sdi, YIM hajmi 1 kvadrillion so'mdan oshdi [Elektron resurs] // Spot.uz. – 2026. – 6 avg. – URL: <https://www.spot.uz/oz/2026/08/06/economic-growth> (murojaat sanasi: 23.08.2026).
39. Xorazmda 81 ming aholini kambag'allikdan chiqarish va 39 ming ishsizni ishga joylashtirish rejalashtirilmoqda [Elektron resurs] // Spot.uz. – 2026. – 21 avg. – URL: <https://www.spot.uz/oz/2026/08/21/khorezm>.
40. O'zbekistonda aholining 48%i norasmiy sektorda ishlamoqda [Elektron resurs] // Spot.uz. – 2026. – 3 avg. – URL: <https://www.spot.uz/oz/2026/08/03/informal-work>.





## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

---

**2026. № 8/1**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>